

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

“SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH” KAFEDRASI

MAVLONOV JAHFAR NIYOZ O‘G‘LI

**“BYUDJET DAROMADLARINING SHAKLLANISHIGA SOLIQ
IMTIYOZLARINING TA‘SIRINING TAHLILI”**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”

“Soliqlar va soliqqa tortish”
kafedrası mudiri
i.f.d., professor Jo‘raev A.C.

“ _____ ” _____ 2015 y.

Bitiruvchi: 5230800 – “Soliqlar va soliqqa tortish”
ta‘lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi
Mavlonov Jahfar Niyoz o‘g‘li _____

Ilmiy rahbar: k.o‘q. Qiyosov Sh. _____

TOSHKENT - 2015

MUNDARIJA		Betlar
KIRISH.....		3
I BOB. SOLIQ IMTIYOZLARINING IQTISODIY MOHIYATI VA NAZARIY ASOSLARI.....		6
1.1. Soliq imtiyozlarining mohiyati va iqtisodiyotni tartibga solishdagi ahamiyati.....		6
1.2. Xorijiy mamlakatlar amaliyotida soliq imtiyozlarining budjet daromadlarini shakllanishiga ta'siri.....		12
II BOB. SOLIQ IMTIYOZLARINING AMALDAGI HOLATI VA ULARNING IQTISODIY TAHLILI (Urgut tuman DSI ma'lumotlari asosida).....		20
2.1 Soliq tizimini tartibga solishda soliq imtiyozlarining amaldagi holati tahlili.....		20
2.2. Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishiga soliqlardan beriladigan imtiyozlarning ta'siri tahlili.....		39
III BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYA QILISH SHAROITIDA BYUDJET DAROMADLARINING SHAKLLANISHIGA SOLIQ IMTIYOZLARINING TA'SIRINING TAHLILI		45
3.1. Soliq imtiyozlaridan samarali foydalanish mexanizmini takomillashtirish.....		45
3.2. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida byudjet daromadlarining shakllanishiga soliq imtiyozlarining ta'siri....		49
XULOSA.....		54
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....		58

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Soliqlar davlat budjeti daromadlarini shakllantirish bilan birga mamlakatimiz iqtisodiyotini barqarorlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Soliqlar faqat davlat budjetining daromad manbai bo'lib qolmasdan, ishlab chiqarishni kengaytirish, rivojlantirish, kichik biznesni rivojlantirish hamda bozor infrastrukturasini turli tuzilmalarini shakllantirish uchun ham xizmat qiladi. Bu borada soliq siyosatini erkinlashtirish mazkur soxalarda erishiladigan yutuqlar garovidir. Shu sababli, mamlakatimiz rivojlanishining muhim ustuvor yo'nalishi sifatida soliq siyosatini erkinlashtirishning belgilanishi bejiz emas. Bu borada respublikamizda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan ishlar e'tiborga loyiqdir. Mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8,1 foiz, sanoat ishlab chiqarish hajmi 8,3 foizga, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi 6,9 foiz, kapital qurilish 10,9 foiz, chakana savdo aylanmasi hajmi 14,3 foizga oshdi. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning qariyb 70 foizini yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan tayyor tovarlar tashkil etdi. Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 2014 yilda 9,4 foiz, shu jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 8,7 foiz, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 10 foizga o'sdi. Inflyatsiya darajasi yil yakunlari bo'yicha 6,1 foizni tashkil etdi. Bu prognoz ko'rsatkichlariga nisbatan sezilarli darajada pastdir. O'tgan yili soliq yuki 20,5 foizdan 20 foizga, foyda solig'i stavkasi esa 9 foizdan 8 foizga kamaytirilgan bo'lsa-da, davlat byudjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,2 foiz profitsit bilan bajarildi.¹

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida soliqlarning rag'batlantiruvchilik funktsiyasiga ko'proq e'tibor qaratilayotganligi bejiz emas, sababi bu funktsiyaning bajarilishi oqibatida iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlari rivojlantirilishi, ishlab chiqarish va tadbirkorlikning qo'llab-quvvatlanishi, jamiyatdagi ayrim ijtimoiy masalalar hal etilishi mumkin. Soliqlarning

¹ I.A.Karimov. "2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir". //Halq so'zi. 2015 yil 19 yanvar.

rag'batlantiruvchilik funktsiyasining amal qilishi esa o'z navbatida, soliqlardan berilayotgan imtiyozlardan samarali foydalanishga bog'liq. Bu borada ham respublikamizda talaygina tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Soliqlar va undagi imtiyozlar tizimi nisbatan qisqa davr mobaynida bir necha bosqichni o'z boshidan kechirgan bo'lsada, hali to'liq takomillashgan ko'rinish olganicha yo'q. Xususan, Respublikamizning soliq amaliyotida soliqqa tortish tamoyillarining buzilishi, ularga qat'iy amal qilinmayotganligi, soliq imtiyoziga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan soliq imtiyozlarining tub mohiyatini to'liq anglab etilmayotganligi, ayrim hollarda ularga nisbatan nomukammal imtiyozlarning belgilanayotganligi kabi muammolarning mavjud bo'lishi ushbu tizimda hali qilinadigan ishlar ko'lamining kengligidan dalolat berib turibdi.

Bitiruv malakaviy ishi ob'ekti va predmeti. O'zbekiston Respublikasida soliq to'lovchilar uchun soliqlar va boshqa majburiy to'lovlardan taqdim etilgan imtiyozlar va ulardan foydalanish mexanizmi bitiruv malakaviy ishi ob'ekti hisoblanadi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida davlatning soliq to'lovchilar uchun soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan batamom ozod etish yoki vaqtinchalik ozod etish ko'rinishidagi imtiyozlarni taqdim etishi bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar bitiruv malakaviy ishining predmeti hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining maqsadi soliqlarni rag'batlantiruvchanlik funktsiyasining muhim elementlaridan biri bo'lgan soliq imtiyozlari tizimini bozor munosabatlarini erkinlashtirish sharoitiga mos keluvchi va izchil ishlashini belgilab beruvchi yo'nalishlarini ishlab chiqish va takomillashtirishdan iborat.

Ushbu maqsadidan kelib chiqqan holda, quyidagilar bitiruv malakaviy ishining vazifalari qilib belgilandi:

- soliq imtiyozlarining iqtisodiy mohiyatini mamlakatimizning milliy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tadqiq etish;

- davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda soliq imtiyozlarining ta'sirini ko'rib chiqish;
- rivojlangan davlatlar soliq tizimidagi imtiyozlar o'rniga baho berish va mamlakatimiz amaliyoti uchun ijobiy jihatlarini qo'llash bo'yicha ilmiy jihatdan asoslangan tavsiyalar berish;
- mamlakatimiz iqtisodiyotini o'sishiga soliq imtiyozlaridan foydalanishni takomillashtirishga doir ilmiy jihatdan asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishi mavzusini tadqiq etish natijasida chiqarilgan xulosalar hamda ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi soliq tizimini takomillashtirishda, soliq siyosati kontseptsiyasini ishlab chiqishda va ustuvor yo'nalishlarini belgilashda, soliqqa oid munosabatlarni tartibga solishda, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishi tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining kirish qismida mavzuning dolzarbligi, o'rganilganlik darajasi, maqsadi va vazifalari asoslab berilgan.

Birinchi bobda soliq imtiyozlarining iqtisodiy mohiyati va nazariy asoslari yoritib berilgan.

Bitiruv malakaviy ishining ikkinchi bobida soliq imtiyozlarining amaldagi holati va ularning iqtisodiy tahlili (Urgut tuman DSI ma'lumotlari asosida) keltirilgan.

Uchinchi bobda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida byudjet daromadlarining shakllanishiga soliq imtiyozlarining ta'sirining tahlili berilgan.

Bitiruv malakaviy ishining xulosa qismida mavzuni o'rganish jarayonida xulosalar qilingan va soliq imtiyozlaridan foydalanish samaradorligini oshirish yuzasidan taklif va amaliy tavsilar keltirilgan.

I-BOB. SOLIQ IMTIYOZLARINING IQTISODIY MOHIYATI VA NAZARIY ASOSLARI.

1.1 Soliq imtiyozlarining mohiyati va iqtisodiyotni tartibga solishdagi ahamiyati.

Soliqlarning paydo bo'lishi, ularning ilk ko'rinishlari haqida aniq ma'lumotlarga ega bo'lish har bir ilm ahlini qiziqtirishi tabiiydir. Soliqlarning qachon paydo bo'lganligi haqida aniq ma'lumot tarixiy kitoblarda uchramasada, soliqlar tarixini yorituvchi manbalarning guvohlik berishicha, davlat paydo bo'lishi bilan soliqlar jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlarning zururiy bo'g'iniga aylangan. Davlat tuzilishi shakllari rivojlanishi bilan bir vaqtda soliq tizimi ham doimo o'zgarib turgan. Soliqlarning ilk ko'rinishi sifatida qurbonlik qilingan noz-ne'matlar e'tirof etiladi. Buning xususiyati shundan iboratki, qurbonlik qilish majburiy bo'lmay, balki ixtiyariy tarzda amalga oshirilgandir. yoilingan qurbonliklar esa kambag'allarga, nochorlarga, etimlarga, muhtojlarga ulashib berilgan. Keyinchalik joriy etilgan soliqlar esa bevosita qabila hamda urug'lar o'rtasida davom etib turgan urush-janjallarga bog'liqdir. Bunday soliqlar natura shaklida bo'lib, bir qabilani bosib olish yoki o'zini muhofaza qilish uchun safarbar etilgan. Shu nuqtai-nazardan olib qaraganda, soliqlar qadim davrlardanoq odamlar tasavvurida kishining boshiga tushishi mumkin bo'lgan eng yomon illatlardan biri sanalgan².

Soliqlar o'zida qadimiylilikni kasb etar ekan, shu o'rinda, ularni tarixiy jarayonning ajralmas elementi sifatida e'tirof etish mumkin. Soliqlarsiz hech bir jamiyat mavjud bo'lmasligini tarixiy haqiqat bugungi kunda ko'rsatib berdi.

Bozor munosabatlarining yanada erkinlashuvi sharoitida mamlakatimizning soliq siyosati nisbatan murakkab sharoitlarda amalga oshirilmoqda. Bunday deyishimizga sabab:

² Юткина Т. Налоги и налогообложение. Учебник. –М.: “Инфра-М”, 2002. С. 11

- mamlakat iqtisodining turli tarmoqlarida yuqori resurs talab qiluvchi va past raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqaruvchi ko'plab korxonalarining hanuzgacha mavjudligi;
- ko'pchilik ishlab chiqarish korxonalarining zamon talablaridan kelib chiqqan holda texnologik jihatdan qayta qurollanmaganligi;
- xususiy sektorning o'z huquqlarini yaxshi tushunib etmayotganligi, ya'ni huquqiy madaniyati va bilimi past darajadali va shunga muvofiq bozor qoidolari asosida mukammal faoliyat yuritmayotganligi;
- korxonalarda investitsiya olib kirish harakatlarining etarli darajada emasligi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliqlarning rag'batlantiruvchilik funksiyasining asosiy elementlaridan biri - bu soliq imtiyozlaridir. Soliq imtiyozlari yordamida davlat iqtisodiy rivojlanishni, yangi ishchi o'rinlari tashkil etishni, ishlab chiqarishni kengaytirish uchun kapital quyilmalarni amalga oshirishni va investitsiyalarni jalb qilishni rag'batlantirib turadi. Puxta ishlab chiqilgan soliq tizimida iste'molga yo'naltirilgan mablag'larni soliqqa tortish muhim ahamiyat kasb etadi³. Ishlab chiqarishning taraqqiyotiga yo'naltirilgan mablag'lar esa, to'liq yoki qisman soliqdan ozod qilinishi mumkin. Yuqorida belgilangan barcha vazifalar soliqlarning rag'batlantiruvchilik tizimi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu bog'liqlik asosan ana shu rag'batlantiruvchanlik funksiyasining elementi bo'lgan soliq imtiyozlarida namoyon bo'ladi. Bizning fikrimizcha, mamlakatimizda bugungi kunga qadar shakllangan soliq tizimi va unda amalda bo'lgan soliq imtiyozlarini besh bosqichga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq.

Dastlabki bosqichni tom ma'noda davlatimizning bozor munosabatlariga o'tishi, turli xildagi mulk shakllarining paydo bo'lishi va ularning davlat bilan o'zaro munosabatlarini shakllantirishda yuzaga keladigan muammolar davri deyish mumkin. Bu davrning o'ziga xos xususiyati shundaki, sobiq Ittifoqning boshqa sub'ektlari bilan chambarchas bog'langan iqtisodiy aloqalarning uzilishi,

³ Mamanazarov A. Soliq siyosati. -T.: "Moliya". 2003. 109-bet

ishlab chiqarishning qisqarishi, aholi turmush darajasining pasayishi hamda boshqa bir qancha ziddiyatli omillarning yuzaga kelishi bilan tavsiflanadi. Davlat yuzaga kelgan bunday muammolarni bartaraf etish va iqtisodiyotni tartibga keltirish uchun bozor iqtisodiyoti qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda, ma'lum bir funktsiyalarni xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga berish bilan o'zining bosh islohotchilik rolini saqlab qolish maqsadida o'ziga xos yo'lni tanladi. Iqtisodiy vaziyat og'irlashgan paytda soliqlarni korxonalarning daromadlariga qaratilishi ijobiy natijalarga olib kelishi qiyin edi, albatta. Mana shunday murakkab vaziyatda soliq sub'ektlari va davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga soluvchi "Korxonalar, tashkilotlar va birlashmalardan olinadigan soliqlar to'g'risida"gi Qonunning yaratilganligi bu davrdagi soliq munosabatlarning huquqiy asosini belgilab berdi.

Birinchi bosqichda qo'llanilgan soliq turlari va imtiyozlar birinchi navbatda, aholini ijtimoiy himoya qilish, ishlab chiqarishning muhim tarmoqlarini saqlab qolish, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish jarayonida notenglik sharoitlarini yuzaga kelishini oldini olishga qaratildi⁴.

Bu davrda shakllangan soliq imtiyozlarini shartli ravishda quyidagi ikki guruhga bo'lish o'rinlidir:

- ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni rag'batlantiruvchi imtiyozlar;
- mamlakatni iqtisodiy nochorlik holatidan chiqarishga qaratilgan imtiyozlar.

Birinchi guruhga aholi bandligi muammosini hal etishga imkon beruvchi, aholi turmush darajasining o'sishiga olib keluvchi hamda aholining nochor qatlamlarini ijtimoiy himoyalash maqsadlarida berilgan imtiyozlarni kiritish mumkin. Bundan tashqari, bu guruhga resurslardan, shu jumladan, mehnat resurslaridan oqilona foydalanishni rag'batlantiruvchi imtiyozlar ham kiradi. Ikkinchi guruhga korxonalarning ixtisoslashuviga, muayyan sharoitda davlat

⁴ Xvan L.B. Soliq huquqi. -T.: "Konsauditinform", 2001. 145-bet

uchun ahamiyatliliga hamda moddiy-texnika ta'minoti sharoitlariga qarab berilgan imtiyozlarni kiritish mumkin⁵.

Soliq qonunchiligi shakllanishining ikkinchi bosqichida soliqlarning rag'batlantiruvchilik roliga alohida ahamiyat berildi. Bu bosqichda soliqlarning iqtisodiyotni boshqarishdagi fiskal funktsiyasi o'rnini rag'batlantiruvchilik funktsiyasi egallab bordi. Ya'ni, iqtisodiy vaziyatdan kelib chiqqan holda, soliqlarning iqtisodiyotni boshqarish roliga katta e'tibor qaratilganligini kuzatamiz. Aynan shu borada 1994 yil 30 noyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida soliqlarning rag'batlantiruvchilik rolini kuchaytirishning asosiy yo'nalishlari to'g'risida"gi 1014-sonli farmoni e'lon qilindi. Farmon talablari korxonalardan undiriladigan soliqlarni pasaytirish, ularning moliyaviy natijalaridan manfaatdorligini oshirish, soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini, ishlab chiqarish va mahsulot sotishni kengaytirish, korxonalar aylanma mablag'larining aylanish davrini tezlashtirish, foydani oshirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va investitsion faoliyatni jadallashtirishga qaratildi. Soliq tizimi shakllanishining uchinchi bosqichi asosan mazkur tizimni barqarorlashtirish bo'yicha izlanishlar bilan izohlanadi. Bunda soliq tizimini takomillashtirish, uning huquqiy bazasini mustahkamlash hamda soliq to'lovchilar va soliq organlari o'rtasidagi munosabatlar uyg'unligini ta'minlovchi yagona majmua Soliq kodeksi yaratildi va 1998 yil 1 yanvardan boshlab kuchga kirdi. Shuningdek, bu bosqichda samarali ishlayotgan va faoliyati jihatdan muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyat kasb etuvchi hamda ekologik muammolarni hal etishga qaratilgan yo'nalishlarga qo'shimcha soliq imtiyozlarini berish orqali soliqlarning rag'batlantiruvchilik rolini oshirishga erishildi.

Soliqlar va undagi imtiyozlar tizimi shakllanishining to'rtinchi bosqichi ko'p jihatdan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 13 noyabrdagi 390-sonli "Bozorni iste'mol tovarlari bilan to'ldirishni rag'batlantirish hamda ishlab chiqaruvchilar va savdo tashkilotlarining o'zaro

⁵ Mamanazarov A. Soliq siyosati. -T.: "Moliya". 2003. 110-bet

munosabatlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori bilan bog'langan holda o'z ifodasini topdi desak bo'ladi. Bu bosqich mamlakatning iste'mol bozorini to'ldirishda qatnashayotgan ishlab chiqaruvchilarga nisbatan keng turdagi imtiyozlar tizimi amal qilishi bilan o'ziga xos bo'ldi⁶.

Keyingi beshinchi bosqich 2008 yil 1 yanvardan kuchga kirgan yangi tahrirdagi Soliq kodeksining qabul qilinishi bilan boshlandi.

Yuqoridagi barcha bosqichlarga xos bulgan umumiy jihat shundaki, iqtisodiy munosabatlar jarayonini maqsadli tartibga solishning eng samarali vositasi – bu soliq imtiyozlarining taqdim etilishi bo'lib, unda iqtisodiy siyosatning tub mohiyatidan kelib chiqqan holda investitsion faoliyatni rag'batlantirish, korxona xo'jalik faoliyatini faollashtirish, mamlakat eksport salohiyatini o'stirishga ta'sir etish orqali valyuta tushumini ko'paytirish, ijtimoiy soha ob'ektlarini moliyalashtirish kabi faoliyatlar rag'batlantiriladi.

Soliq imtiyozlarining mohiyati bevosita soliq va imtiyoz o'rtasida mavjud bo'lgan dialektik bog'liqlikda yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi. Soliq va imtiyoz o'rtasidagi dialektik bog'liqlikni mamlakatimizda birinchilardan bo'lib yoritgan iqtisodchi olim, professor T.Malikov bo'lib, ularning bu boradagi ishlari tahsinga sazovordir. Aytish mumkinki, professor T.Malikov soliq va imtiyoz o'rtasidagi dialektik bog'liqlikni ko'rsatib, soliq imtiyozini olgan tomon ham, imtiyozni bergan tomon ham manfaatlari bir-biriga mos tushsagina, soliq imtiyozini soliq to'lovchiga berish maqsadga muvofiq⁷, degan xulosani ilgari surgan. Bu o'rinda manfaatlar qay tartibda bir-biriga mos tushadi degan haqli savol tug'ilishi tabiiy. Agar ishlab chiqaruvchi imtiyozga ega bo'lgan holda, avvalgiday moliyaviy natijaga erishsa, unda budjetga bu to'g'ri xarajatlar sifatida ta'sir qilishi mumkin. Ya'ni budjetga kelib tushadigan mablag' ma'lum qismga qisqarishi mumkin va shu asnoda budjetdan moliyalashtiriladigan xarajatlarning bir qismi moliyalashtirilmay qolishi ehtimoldan xoli emas. Davlat budjetidan bo'ladigan xarajatlarning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy masalalarga

⁶ Yahyoev Q. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. O'quv qo'llanma. -T.: 2003. 50-bet

⁷ Malikov T. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. -T.: "Akademiya", 2002. 86-bet.

qaratilganligini hisobga oladigan bo'lsak, bu o'rinda berilgan imtiyoz o'z ma'nosiga ega bo'lmaydi. Faqatgina ishlab chiqaruvchi soliq imtiyoziga ega bo'lgandan keyin avvalgi faoliyatiga nisbatan yaxshiroq moliyaviy natijaga erishsagina, ya'ni mahsulot ishlab chiqarish hajmi oldingiga nisbatan o'ssagina, budjet ushbu imtiyozni berishdan manfaatdor bo'ladi.

Tarixiy nuqtai-nazardan olib qaraganda, soliqlar bo'yicha berilgan imtiyozlarning ildizi uzoqlarga borib taqaladi. Masalan, bir qabila boshqa qabila ustidan o'zaro janglarda g'alaba qozonar ekan, o'z navbatida, mag'lub bo'lgan qabiladan tortib olingan mol-mulklar hisobiga ma'lum bir vaqt o'z qabila a'zolaridan qurbonlik ko'rinishidagi to'lovlar olinmagan yoki boshqa to'lovlardan ozod etilgan. Rivojlanish bosqichlarining keyingi davrlarida soliq imtiyozlaridan foydalanish imkoniyati ma'lum bir sinf a'zolariga, asosan aholining boy qatlamlariga berilgan. Soliqlarni to'lash uni to'lovchilari uchun o'ziga xos kamsitish sifatida qaralgan. qadimiy Rimda tinchlik vaqtlarida soliqlardan butunlay ozod bo'lganlar. Soliqlar o'rni turli xil bojlar hisobiga to'ldirilgan⁸.

Mamlakatimiz hududidagi soliq tizimi va soliqqa doir imtiyozlar jarayoni ham o'z tarixiga egadir. Xususan, Amir Temur davrida asosiy soliqlar sifatida yer solig'i, jon solig'i, zakot, miniladigan hayvonlar etkazib berish va boshqa ba'zi favqulodda soliqlar amal qilgan edi. Bu davrda ham soliqni hisoblab chiqish qoidalari mavjud bo'lgan. Soliqlar yerning unumdorligiga va tegishli ravishda belgilangan baholarga muvofiq tarzda hisoblangan. Sug'orilmaydigan yerlardan soliq miqdori hosilning 1/4 qismini tashkil etgan. Ko'rinish turibdiki, soliq miqdorlari yer sifatiga, sug'oriladigan yoki sug'orilmaydigan ekanligiga qarab tabaqalashtirilgan⁹. Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda, ta'kidlash joizki, Amir Temur davlatni idora kilishda asosan soliqlarga tayanganligini guvohi bo'lamiz. Shuningdek, Markaziy Osiyoda arablar hukmronligi davrida ham soliqlarning turli shakllari mavjud bo'lgan. Masalan, xayr-ehson

⁸ Soliq qonunchiligi asoslari. O'quv qo'llanmasi. -T.: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi", 2000. 12-bet.

⁹ Soliq qonunchiligi asoslari. O'quv qo'llanmasi. -T.: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi", 2000. 21-bet.

maqsadidagi zakot jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikni bartaraf etish uchun mo'ljallangan. Bundan tashqari vazifa (o'lpon), juzya (jon solig'i), xiroj (yer) solig'i kabi soliqlar mavjud bo'lgan.

Shu bilan birga, bu davrda arablar soliqlarning rag'batlantiruvchilik vazifasidan unumli foydalanib, mahalliy aholining islomga kirgan qatlamidan soliq undirishmagan. "Soliqlar tarixidan saboqlar" deb nomlangan risolada bu haqda shunday yoziladi: "...Soliq siyosatidan keng foydalanishni istagan arablar, avvalo, yangi dinni qabul qilgan aholini soliqdan ozod qildilar¹⁰". Demak, soliq imtiyozlarining kishilar psixologiyasiga ta'sir doirasi kengligini bilgan arablar undan samarali foydalana olganlar.

1.2. Xorijiy mamlakatlar amaliyotida soliq imtiyozlarining budjet daromadlarini shakllanishiga ta'siri.

Dunyoning ko'plab mamlakatlarida XX asrning 80-90 yillarida shu jumladan AKSh, Germaniya, Buyuk Britaniya, Frantsiya, Yaponiya, Shvetsiya va boshqa mamlakatlarda tadbirkorlikni rag'batlantiradigan va kapital jamg'arishni tezlashtirishga qaratilgan soliq islohotlari olib borildi. Bu mamlakatlarda yuksak texnologiyali ishlab chiqarish soliqlar asosida rag'batlantirildi. Masalan, Buyuk Britaniyada Uels, Shotlandiya grafliklari, Angliyaning shimoliy tumanlari, Shimoliy Irlandiya, Korn Uels, Belgiyadagi toshko'mir va metallurgiya sanoat tumanlari fan-texnika taraqqiyotining ta'siri ostida inqirozga yuz tutgan vaqtda iqtisodiyotni tushkunlikdan chiqarishning soliqlar yo'li muxim o'rin tutdi. Shuning uchun, xo'jalik sub'ektlarining moliyaviy faoliyatini mustaxkamlaydigan va investitsiyani rag'batlantiradigan soliq islohotlari amalga oshirildi.

Rivojlangan davlatlar soliq tizimi tez o'zgaruvchi iqtisodiy shart-sharoitlarga doimiy ravishda moslashib, takomillashib bormoqda. Bu

¹⁰ Qoraboev N., Toshmatov M. Soliqlar tarixidan saboqlar. -T.: Yozuvchi nashriyoti. 2001. 13-bet.

mamlakatlarda qo'llanilayotgan soliq imtiyozlarining tub mohiyatini chuqurroq anglash uchun birinchi navbatda, ularning bu sohada bosib o'tgan yo'lini o'rganish asosiy masala hisoblanadi. Shu borada jahon soliq tizimining ikkinchi jahon urushidan keyingi rivojlanish bosqichi ayniqsa diqqatga sazovordir. Urushdan keyingi iqtisodiyotning ahvoli 40-yillarning o'rtalarida G'arbiy Evropa davlatlarida soliq tizimini isloh qilishni dolzarb masalalardan biriga aylantirdi. Bu davlatlarda soliq tizimi yordamida yaratilgan milliy daromadni sanoatning etakchi tarmoqlarini moliyalashtirish maqsadida qayta taqsimlash, investitsiyalarni va tashqi iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish amalga oshirildi¹¹.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng, iqtisodiyotning davlat tomonidan boshqarishning o'sishi barobarida AQShda soliq siyosatining ahamiyati ham o'sganligini e'tirof etish lozim. Sof fiskal vazifadan tashqari, soliqlar tobora iqtisodiyotni tartibga solishning muhim elementiga aylanib borar edi. Bu holatning ayniqsa, korporatsiyalar foyda solig'ida namoyon bo'lishi, uning budjetga soliq tushumlari shaklidagi ahamiyatining doimiy ravishda pasayishiga olib keldi. Lekin shu bilan birga, uning iqtisodiy o'sishga, investitsion faollikka, ilmiy-texnik taraqqiyotga ta'sir etuvchi roli o'sish tendentsiyasiga ega bo'ldi.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi Yaponiya soliq tizimining rivojlanishi bir qator rag'batlantiruvchi jihatlari bilan e'tiborga molik¹². Bu yerda amal qilgan maxsus soliq tadbirlari soliq siyosatining ikki yo'nalishini keltirib chiqardi:

- maxsus siyosiy maqsadlarni ko'zlash uchun rag'batlantiruvchi soliq siyosati qo'llanildi;
- soliq yukining past darajasini saqlab qolish maqsadida, asta-sekinlik bilan soliqlarni kamaytirish.

Yuqoridagi tadbirlar XX asrning 70-yillarigacha amal qilib, keyinchalik ular soni qisqartirib borildi. Hozirgi kunga kelib, birgina eksport va mamlakatga investitsiyalar qilish bo'yicha rag'batlantiruvchi imtiyozning tizimda juda oz miqdorni tashkil etmoqda. Bundan ko'rinib turibdiki, mamlakatning ma'lum bir

¹¹ Караваева И. Налоговое регулирование рыночной экономики. -М.: ЮНИТИ. 2000. С. 51

¹² Japanese Tax System. Second Edition. 1998. P-15

iqtisodiy salohiyatga etgungacha bo'lgan davrda unda soliq imtiyozlari ustuvor yo'nalishlarda amal qiladi. Xususan, Yaponiyada xorijiy investitsiyani rag'batlantirish va eksportni qo'llab-quvvatlash borasidagi imtiyozlarning hajmi o'tgan asrning 70-yillariga qadar o'sib, keyinchalik pasayganligini ko'rish mumkin.

O'sha paytdagi Yaponiya soliq siyosati oldiga qo'yilgan vazifalardan biri soliq yukini pasaytirishda soliqlarni kamaytirish bilan ifodalandi. Yana shuni qayd qilish kerakki, urushdan keyingi Yaponiyada iqtisodiyotning o'sishi o'z-o'zidan soliq tushumlarini yildan-yilga ko'payishiga olib keldi. Buning asosiy sabablaridan biri sifatida mamlakatda iqtisodiy o'sishning ta'minlanayotganligi bo'lsa, ikkinchi tomondan soliq imtiyozlarining maqsadli berilishi byujet daromadlarini shakllantirishga ijobiy ta'sir o'tkazdi. Demak, soliq imtiyozlarining ma'lum davrda samarali ishlashi uchun ular bilan parallel ravishda ba'zi bir shart-sharoitlar yaratilishi lozim. Xususan, iqtisodiy o'sishning ta'minlanishi, soliq to'lovchilar sonining kengayishi, tadbirkorlikning keng miqyosda qo'llab-quvvatlanishi shular jumlasidandir. Soliq stavkasining pasaytirilishi barqaror iqtisodiy o'sish davrida ko'zlangan natijani berishi mumkin. Shu bilan birga, soliq to'lovchilar zimmasidagi soliq yukini yanada pasaytirilishi uchun ularning o'zlari ham ma'lum ma'noda sababchi ekanligini aytish lozim.

O'sha paytda amal qilgan soliq imtiyozlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, ular avvalo, iqtisodiy siyosatdan kelib chiqqan holda, xususiy tadbirkorlikni, ishlab chiqarish va ilmiy-texnik faoliyatni rag'batlantirishga qaratilganligi bilan o'ziga xosdir. Shu bilan birga, soliq imtiyozlari orqali ishlab chiqarishning ilg'or tarmoqlari va ilm-fanga yo'naltirilgan investitsiyalar rag'batlantirib turilgan. O'tgan asrning 50-70 yillarida G'arb davlatlari soliq siyosatining ustuvor yo'nalishi ilmiy-texnik rivojlanishni ishlab chiqarishning barcha sohalariga kirib borishi bilan izohlanadi. Asosiy kapitalga xususiy investitsiyalarni jalb etish va ilmiy-texnik tajriba o'tkazish xarajatlarini kengaytirishni rag'batlantirish maqsadida soliq imtiyozlari aynan 50-yillarning 2-chi yarmi va 60-yillarning

boshida shakllana boshladi. Buning kelib chiqishiga bir necha sabablar turtki bo'ldi¹³.

Birinchidan, soliq siyosati iqtisodiyotni makrodarajada rivojlantirish, ilmiy-texnik rivojlanishning o'sib borishi sharoitidan kelib chiqadigan omillar asosida amalga oshirildi. Xuddi mana shu davrdan boshlab, milliy soliq tizimlarida fiskal funktsiya bilan bir qatorda, kuchli rag'batlantirish haqidagi soliqqa tortishning nazariy kontseptsiyalari paydo bo'la boshladi. Soliq imtiyozlari mexanizmining keng qo'llanilishi oqibatida ilmiy-texnik rivojlanishning jadal sur'atlarda o'sishiga davlat tomonidan ta'sir ko'rsatildi¹⁴. Shu bilan birga, eksportning o'sishi, hududlar iqtisodiy rivojlanishining tenglashtirilishi, ko'p ilm talab etuvchi sohalarga investitsiyalar kiritishning rag'batlantirilishi, bandlikning o'sishi va boshqa iqtisodiy-ijtimoiy muammolar aynan mana shu mexanizm orqali tartibga solib turildi.

Ikkinchidan, ilmiy-texnik rivojlanishga davlat tomonidan qilingan xarajatlar ham real ko'rinishda, ham foiz ko'rinishida davlat budjeti xarajatlarining boshqa turlariga nisbatan kamayishi kuzatildi. O'tgan asrning 50-70 yillarda soliq imtiyozlari ilmiy-texnik investitsiyalarga emas, balki ishlab chiqarishni rivojlantirishga qaratilgan deyish mumkin, chunki, rivojlangan davlatlar iqtisodiyotining ba'zi sohalarida berilgan soliq-amortizatsion imtiyozlari ayrim hollarda firmaning soliq majburiyatidan ham ustunlik qildi. 60-yillarning ikkinchi yarmida soliq imtiyozlari va chegirmalariga muvofiq, AQSh neft kompaniyalari budjetga to'laydigan to'lovlarni har yili 2,5 mlrd dollarga kamaytirib borgan. 1971 yilda yirik neft korporatsiyalarida daromad solig'i soliq solinadigan foydaning 5 foizini tashkil etdi, qiyoslash uchun keltiriladigan bo'lsa, o'sha davrda bu ko'rsatkich 40 foizini tashkil etar edi. 1970 yilda AQShda 86ta yirik korporatsiyalarning 9tasi jami bo'lib 682 mln dollarlik daromadga ega bo'lgan bo'lsada, soliq imtiyozlari evaziga federal soliqlar to'lashga jalb etilmagan. Bir yildan so'ng, soliq qonunchiligida ko'zda

¹³ Александров И. Налоговые системы России и зарубежных стран. -М.: "Бератов-Пресс". 2002. стр. 132.

¹⁴ Юткина Т. Налоги и налогообложение. -М.: "ЮНИТИ". 2002. стр. 49

tutilgan imtiyozlar evaziga federal daromad solig'ini yiliga 10 va 100 million dollarlik daromadga ega bo'lgan kompaniyalar ham to'lamadilar: "Makdonel Duglas" (144,6 mln dol.), "Kontinental Oyl" (109 mln dol.), "Signa Kompani" (25,9 mln dol.)¹⁵.

AQSh hukumati davlat budjetidagi bu yo'qotishlarni hisob-kitobini olib borish maqsadida, 1975 yilda federal budjetga "Soliq xarajatlari" moddasini qo'shishga majbur bo'ldi. Bu moddada korporatsiyalarga soliq imtiyozlarini berishdan xazina qancha mablag'ni qo'lga kiritmasligi hisob-kitob qilinib, tahlil qilinadi.

Amalga oshirilayotgan islohotlar soliq imtiyozlarining maqsadli berilishida ma'lum o'zgarishlar amalga oshirilganligidan dalolat beradi. Ya'ni, ishlab chiqarishni rivojlantirishga qaratilgan rag'batlantiruvchi imtiyozlarning zamon talablariga muvofiq emasligi sababli, endi ilmiy-tadqiqot ishlariga yo'naltirilgan quyilmalarning soliq imtiyozlari orqali qo'llab-quvvatlanishi ustuvorlik ahamiyat kasb eta boshladi.

Ma'lumki, ilmiy nazariyaga quyilmalar sekin qaytadi va shu tufayli korporatsiyalar tadqiqotlarga investitsiya qilishga bir tomonlama qarashadi. Bularning barchasi rivojlangan davlatlarda fundamental tadqiqotlarga ixtisoslashgan ishlab chiqarish loyihalar ulushining kamligi bilan bog'langan. 80-yillarning o'rtalarida fundamental xarakterdagi tadqiqotlar uchun korporatsiyalar tomonidan qilingan xarajatlarning umumiy hajmga nisbatan quyidagicha bo'lgan: AQShda – 19 foiz, Frantsiyada – 9 foiz, Buyuk Britaniyada – 13 foiz, Germaniyada - 18 foiz va Shvetsiyada - 8 foiz. Faqatgina Yaponiyada bu ko'rsatkich – 26 foizni tashkil etib, u ham bo'lsa davlatning o'ziga xos xususiyatlari bilan ifododalanadi¹⁶.

Rivojlangan davlatlarda ko'pgina fundamental tadqiqotlar tarkibiy ko'rinishda universitetlar laboratoriyasiga to'g'ri keladi: Yaponiyada – 61 foiz, Germaniya va Frantsiyada – 67 foiz, Buyuk Britaniyada – 55 foiz, Shvetsiyada –

¹⁵ Караева И. Налоговое регулирование рыночной экономики. -М.: ЮНИТИ. 2000. С. 47

¹⁶ Актуальные валютно-финансовые проблемы зарубежных стран: обзорная информация. -М.: НИИФИ. 1988. С. 35

88 foizni tashkil etadi. AQShda 80-yillarning o'rtalarida fundamental tadqiqotlarning 57 foizi universitetlar markazlari ulushiga, 10 foizi ishlab chiqarish kompaniyalari laboratoriyalariga, 8 foizi xususiy notijorat tadqiqot institutlari zimmasiga to'g'ri kelgan¹⁷.

Bundan shu narsa kelib chiqadiki, ilmiy ishlanmalar va yangiliklarning ko'pi aynan mana shu markazlarda bajarilib, ishlab chiqarishga joriy qilina boshlangan. Demak, ishlab chiqaruvchi kompaniyalar va universitetlar o'rtasidagi hamkorlik bevosita soliq imtiyozlari bilan bog'liq holda rivojlangan. Buning natijasida rivojlangan davlatlarning iqtisodiyoti jadal sur'atlarda o'sdi.

Bizningcha, bu amaliyotni mamlakatimizda ham joriy etilishi maqsadga muvofiq bo'lar edi. Chunki, bizda ko'pchilik olimlar ta'riflaganlaridek kuchli ilmiy salohiyat mavjud, bu salohiyatni ishga solishni rag'batlantirish aynan soliq imtiyozlari yordamida amalga oshishi mumkin. Natijada ham korxonalarining texnik-texnologik jihatdan qayta qurollanishi amalga oshishi, ham universitetlarning moddiy-texnika bazasining mustahkamlanishiga erishish mumkin.

Ushbu mamlakatlar soliq tizimida amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar jarayoni jismoniy shaxslar daromad solig'i va korxonalar foyda solig'i mexanizmini erkinlashtirishga qaratilgan bo'lib, bu yo'nalish soliq stavkasining kamaytirilishi oqibatida soliq bazasining kengayishi hamda soliq imtiyozlarining asta-sekinlik bilan qisqartirilishi tendentsiyasi bilan ifodalanadi. Masalan, o'sha davrda AQShda korporatsiyalar foyda solig'i stavkasi 46 foizdan 39 foizga tushirildi. Bu jarayonlar bilan bir vaqtda tezlashtirilgan amortizatsiya chegaralandi, soliq kreditining keng miqyosda qo'llanilishiga barham berildi, soliqlarga tortilmaydigan minimumlar oshdi, berilgan imtiyozlar sezilarli ravishda kamaydi¹⁸.

Kanada soliq siyosatida foyda solig'i va bu soliq bo'yicha berilgan imtiyozlar muhim o'rin egallab, kompaniyalarni asosiy va aylanma

¹⁷ Science and Public Policy. L. 1986. N2. R. 69

¹⁸ Караваева И. Налоговое регулирование рыночной экономики. -М.: "ЮНИТИ-ДАНА", 2000. С. 58

mablag'laridan oqilona foydalanishga, ilmiy-texnik taraqqiyot natijalarini tadbiq qilishga, ayrim hududlarda iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishga yo'naltirganligi bilan e'tiborga molik. 1998 yildan boshlab soliq stavkasi pasayish tendentsiyasiga ega bo'lib, 5 yil ichida 36 dan 23 foizga tushdi¹⁹.

Ayniqsa, bu borada Buyuk Britaniyada amalga oshirilgan soliq islohotlari "Past darajadagi soliqlar iqtisodiyot samaradorligini oshiradi" degan shior ostida kechib, korporativ soliq stavkasining 52 foizdan 35 foizgacha tushirilishiga (pasaytirilishiga) olib keldi²⁰.

Germaniyada soliq tizimidagi korporativ soliqlarning yuqori stavkasiga tanqidiy yondashilib, "Yuqori stavkalar va ko'pgina chegirishlardan ko'ra, past stavkalar va kam imtiyozlar yaxshiroq" degan ibora soliq amaliyotida o'z aksini topdi.

Jahon amaliyotida soliq imtiyozlari keng tartibda qo'llanilib, turli mamlakatlarda ular turlicha tarkibga ega. Rivojlangan davlatlar soliq tizimi amaliyotida foydalaniladigan soliq imtiyozlarining tahlili ayniqsa diqqatga sazovor. Imtiyozlar avvalo, har bir yirik soliq turi (foyda, qo'shilgan qiymat solig'i)ga qo'llanilib, ularning asl maqsadi joriy soliqlarda yaqqolroq ifodalanadi. Soliq imtiyozlarining birinchi navbatda, ishlab chiqarish va tadbirkorlikni umumiy tartibda qo'llab-quvvatlashga qaratilganligini inobatga oladigan bo'lsak, ular shuningdek, ayrim ijtimoiy masalalarni hal etishga qaratilganligi bilan ham diqqatga sazovordir. Birinchi turdagi soliq imtiyozlari bevosita foydani soliqqa tortish bilan bog'liq. Korxonalarga foyda solig'idan berilgan har qanday imtiyoz ularning tadbirkorlik va ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirishga imkon yaratadi. Foyda solig'ining to'g'ri soliqlar tarkibiga kirishini inobatga oladigan bo'lsak, bu soliqdan beriladigan imtiyozlar ham korxonaning moliyaviy-iqtisodiy faoliyatiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir o'tkazadi.

¹⁹ OECD, Corporate Tax Rates. Some Differences. KPMG International Tax Center. Amsterdam, Jan, 1996. r. 5

²⁰ Черник Д., Починок А., Морозов В. Основы налоговой системы. -М.: "ЮНИТИ-ДАНА", 1998. С. 98

Xorijda qo'llaniladigan soliq imtiyozlaridan yana biri bu - soliqlardan to'liq ozod qilish va "soliq ta'tili" muddatlarini o'rnatish bo'lib, bunday turdagi imtiyozlar Evropa davlatlarida ko'proq qo'llaniladi. Masalan, Frantsiyada kompaniyalarning chet elga investitsiya qilishga, yangi tadbirkorlarni rag'batlantirish uchun soliqlardan vaqtincha bo'sh bo'lgan mablag'larni tashkil qilishlari mumkin. Italiyada 1986 yil 29 martdan keyin ayrim "qoloq" hududlarda tashkil topgan yangi korxonalar korporatsion va mahalliy soliqlardan o'n yil davomida ozod bo'lishlari mumkin (1993 yil 31 dekabridan boshlab, bu imtiyoz birmuncha qisqartirildi). Finlyandiyada soliqlardan to'liq ozod qilish bilan birga investitsion soliq kreditlarini etakchi tarmoqlardan biri bo'lgan kemasozlikni rag'batlantirish ko'zda tutilgan. Belgiyada soliqlardan ozod qilishning 10 yillik ta'tili kichik venchur firmalarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan²¹. Bundan tashqari, 10 yillik korporatsion soliqdan ozod qilish mehnat unumdorligining oshishini ta'minlash bilan bir qatorda, ish bilan bandlikni ko'paytirish va ishlab chiqarish quvvatidan unumli foydalanishni amalga oshirayotgan korporatsiyalarga taqdim etilayotganligi bu davlatda iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlanayotganligidan dalolatdir.

²¹ Никитин С., Никитин А., Степанова М. Налоговые льготы стимулирующие предпринимательскую деятельность в развитых странах запада. //Мировая экономика и международные отношения. –М.: №11, 2000. С. 53

II-BOB. SOLIQ IMTIYOZLARINING AMALDAGI HOLATI VA ULARNING IQTISODIY TAHLILI (Urgut tuman DSI ma'lumotlari asosida).

2.1. Soliq tizimini tartibga solishda soliq imtiyozlarining amaldagi holati tahlili.

Har qanday rivojlanish bosqichiga kirgan va yuksak rivojlangan davlatlarning iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini tahlil etadigan bo'lsak, unda boshqa omillar bilan bir qatorda, soliq imtiyozlarining ham o'ziga xos o'rni borligini ko'rishimiz mumkin. Xususan, soliq imtiyozlari rag'batlantirishning muhim omili sifatida bozor munosabatlariga o'tish jarayonida eng muhim iqtisodiy vazifalarni hal etishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Biroq bunday vazifalarni hal etishga qaratilgan noto'g'ri yondashuv soliq imtiyozlaridan foydalanishning hech qanday samara bermaydigan jihatlariga ham olib kelishi mumkin.

Aytish lozimki, soliq imtiyozlarini taqdim etishdan ko'zlangan asosiy maqsad, ishlab chiqarishni rivojlantirishga hamda bugungi kunda iqtisodiyotimiz duch kelayotgan ayrim muammolarni hal etishga qaratilganligi bilan ifodalanadi. Aks holda, soliq imtiyozlarining ishlash mexanizmiga jiddiy putur etishi ehtimoldan holi emas. Mamlakatimizda ko'p hollarda berilgan imtiyozlardan samarali foydalanmaslik, ularning etarli darajada naf bermayotganligini keltirib chiqarmoqda. Buning bir nechta sabablari bor:

- birinchidan, imtiyozga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning imtiyozning tub mohiyatini etarli darajada anglab etmayotganliklari.
- ikkinchidan, nomukammal imtiyozlarning belgilanayotganligi.
- uchinchidan, korxonalarning moliyaviy-iqtisodiy jihatdan nochorligi va boshqalar.

Har bir soliq turining rag'batlantiruvchi xususiyati ushbu soliq turi bo'yicha beriladigan soliq imtiyozlarida to'laroq namoyon bo'ladi. Hozirgi paytda mamlakatimiz soliq tizimida amal qilayotgan imtiyozlarni guruhlariga

ajratgan holda o'rganilganda, ijtimoiy xarakterdagi imtiyozlarning boshqa turdagi soliq imtiyozlariga nisbatan salmoqli miqdorni tashkil etishi bilan ajralib turadi. Bu turdagi imtiyozlar mamlakatdagi ijtimoiy masalalarni hal etishga qaratilganligini inobatga oladigan bo'lsak, ular mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga bilvosita ta'sir o'tkazishi mumkin.

Ikkinchi guruh imtiyozlarining bevosita iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyati juda katta. Bu imtiyozlar turi ishlab chiqarish va tadbirkorlikni rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilishi bilan birga, ularning samarasi o'laroq, budget daromadlarining istiqboldagi o'sishi bilan ham ifodalanadi.

Yana shuni aytish lozimki, soliq imtiyozlari iqtisodiyotning rivojlanish jarayoni bilan bir qatorda takomillashib boradi. Bozor munosabatlari qanchalik rivojlansa, shunga mos tarzda rag'batlantiruvchi imtiyozlar tizimi ham o'zgarib, ularning soni kamayuvchi xarakter kasb etadi.

Bu bildirilgan fikr hozirgi bosqichda imtiyozlarning birinchi guruhi hisoblangan ijtimoiy xarakterdagi imtiyozlar tizimiga ko'proq tegishli, chunki, iqtisodiyotning rivojlanib borishi bilan ijtimoiy xarakterdagi tadbirlarni amalga oshirishdan ko'proq xo'jalik yurituvchi sub'ektning o'zi manfaatdor bo'lib boradi.

Yuqoridagi fikrning mantiqiy davomi sifatida aytish lozimki, bizning sharoitimizda imtiyozlardan asta-sekinlik bilan voz kechilishi har doim ham soliq bazasini kengaytirishga olib kelmasligi mumkin.

Bunday deyishimizga asosiy sabablardan biri, mamlakatimizda ijtimoiy xarakterdagi imtiyozlarning ko'pligi bilan belgilanadi. Shu bilan birga, amaliyotda berilayotgan imtiyozlarning ko'p qismi hukumat qarorlari asosida, korxona va tashkilotlarning penya va boqimanda summalarining kechilishi yoki to'lov muddatlarining uzaytirilishi bilan chambarchas bog'langan.

Bozor munosabatlarining erkinlashtirilishi bosqichida bo'lgan mamlakatimizda doimiy amal qiladigan imtiyozlar tarkibiga quyidagi guruhdagi soliq imtiyozlarini kiritishimiz mumkin:

- tezlashtirilgan amortizatsiya usuli.

- korxonalarning soliq solinadigan foydasini investitsion va ilmiy-tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlariga qilingan xarajatlar summasiga to'liq yoki qisman kamaytirish usuli.

- soliq ta'tillari muddatini belgilagan holda soliqdan to'liq ozod qilish.
- ayrim tadbirkorlik guruhlariga foyda solig'i stavkasini kamaytirish.

Shu o'rinda alohida ta'kidlash lozimki, mamlakatimiz amaliyotida tezlashtirilgan amortizatsiyaning qo'llanilishi borasida hozirgi kunda ba'zi bir muammolar to'siq bo'lmoqda. Shuningdek, amortizatsiya ajratmalaridan oqilona foydalanishga qaratilgan nazoratning pasayganligini ham alohida e'tirof etib o'tishimiz kerak bo'ladi.

Mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, amortizatsiya ajratmalaridan aylanma mablag'larini shakllantirishda, ishchilarga ish haqlari sifatida to'lanishida foydalanilmoqda. Bu esa bozor munosabatlarining har qanday hodisasiga egiluvchan (qayishqoq) tarzda bo'lishi lozim bo'lgan korxonalarning iqtisodiy imkoniyatlarini cheklab qo'yadi.

Tezlashtirilgan amortizatsiya usulidan jahonning ilg'or mamlakatlari, jumladan, Germaniya, Belgiya, Daniya, Ispaniya kabi davlatlarda egri soliq imtiyozi ko'rinishida hanuzgacha qo'llanilib kelinayotganligi bu turdagi imtiyozning doimiy amal qiladigan imtiyoz deyishimizga etarli asos bo'ladi. Shuningdek, bu turdagi imtiyozlar qatoriga korxonalarning soliqqa tortiladigan foydasidan investitsion va ilmiy tadqiqot hamda tajriba konstruktorlik ishlariga qilingan xarajatlar summasiga kamaytirish bilan bog'liq chegirmalarni ham kiritishimiz mumkin.

Masalaning tub mohiyatini chuqurroq anglash uchun investitsion maqsadlarda qilinadigan xarajatlarga ta'rif berib o'tsak. Amaldagi soliq qonunchiligiga asosan, investitsion maqsadlarda qilinadigan xarajatlar deyilganda quyidagi xarajatlar tushuniladi:

- yangi qurilishni amalga oshirish jarayoni bilan bog'liq kapital qurilish, shuningdek, qayta qurish (rekonstruktsiya), amaldagi korxonalarni kengaytirish va texnik qayta qurollantirish;

- ishlab chiqarish maqsadlarida binolar, qurilmalar va inshootlarni sotib olish.

Bunday turdagi soliq imtiyozi ba'zi iqtisodiy adabiyotlarda investitsion kredit deb ham yuritiladi. Investitsion soliq imtiyozi va tezlashtirilgan amortizatsiyani bevosita taqqoslash orqali, bu ikki imtiyozning iqtisodiyotdagi o'rniga baho berish mumkin bo'ladi.

Investitsion imtiyoz to'g'ri imtiyoz sifatida tezlashtirilgan amortizatsiya mexanizmiga nisbatan faolroq va maqsadli xarakter kasb etadi. Bunday deyishimizga sabab, investitsiya amalga oshganda to'lanmagan soliq evaziga korxona qo'shimcha moddiy naf ko'radi.

Tezlashtirilgan amortizatsiya investitsion soliq kreditini o'rnini egallay olmaydi, chunki, uning mexanizmi ITTKI va kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni rag'batlantirishda sezilarli rol o'ynamaydi. Buning sababi esa tezlashtirilgan amortizatsiya tarkibiga o'z muddatini o'tab bo'lgan eski bo'lishiga qaramay to'liq ishlatilgan oldingi uskunalarni almashtirgan uskunalar ham kirishi mumkin.

Bu ikki imtiyoz kompleks ravishda amalga oshirilsa to'g'riroq bo'lar edi, chunki, ular investitsiyalash jarayonining turli bosqichlarida bir-biri bilan uzviy bog'liqlikda bo'ladi.

Soliqdan to'liq ozod qilishni ("soliq ta'tili" muddatlarini o'rnatish bilan birga) ham doimiy amal qiladigan imtiyozlar sarasiga kiritganligimiz bejiz emas. Bu imtiyozning qo'llanilishi oqibatida xorijning ko'p davlatlarida turli sohalarni rivojlantirish maqsad qilib olingan. Masalan, bunday imtiyoz ayrim qoloq hududlarni rivojlantirish uchun xizmat qilgan bo'lsa, Finlyandiyada ustuvor tarmoq bo'lgan kemasozlikni rag'batlantirilgan, Belgiyada esa kichik venchur korxonalarini qo'llab-quvvatlash uchun bu imtiyozdan foydalanilgan.

Tahlil natijalari ko'rsatishicha, mamlakat iqtisodiyotining rivojlanib borishi bilan soliq imtiyozlarining soni ham shunga mos ravishda qisqarib boradi. Bu jarayonning sodir bo'lishiga jahon tajribasi ham guvohlik beradi. Shuningdek,

soliq imtiyozlari sonining ko'pligi ham iqtisodiyotning o'tish davriga xos bo'lgan umumiy holat sifatida qaralishi lozim bo'ladi.

Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarning amalga oshirilishi bilan individual va kam ahamiyatga ega bo'lgan imtiyozlar asta-sekinlik bilan tizim ro'yxatidan tushib boradi. Quyida keltirilayotgan jadvalda soliqlar bo'yicha berilgan imtiyozlarning tahlili to'g'risida ma'lumot berilgan:

1-jadval

Soliq turlari bo'yicha imtiyozlardan foydalanish tahlili²²

Soliq turi	2012 yil	2013 yil	2014 yil
	Jami imtiyoz- lardagi ulushi (%)	Jami imtiyoz- lardagi ulushi (%)	Jami imtiyoz- lardagi ulushi (%)
Imtiyozlar jami	100	100	100
Foyda solig'i	13,2	9,2	9,0
Qo'shilgan qiymat solig'i	51,9	58,9	59,8
Mol-mulk solig'i	24,2	21,5	20,5
Yer solig'i	5,6	5,1	5,1
Boshqa soliq va to'lovlar	5,1	5,3	5,6

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, soliq va yig'implardan berilgan jami imtiyozlarning eng katta qismini qo'shilgan qiymat solig'i bo'lib 2012 yilda 51,9 foizni, 2013 yilda 58,9 foizni, 2013 yilda 58,9 foiz tashkil etadi. Bu davrni taqqoslaydigan bo'lsak, 2014 yilda deyarli barcha soliqlar (boshqa soliq va to'lovlar bundan mustasno) bo'yicha berilgan imtiyozlar ham absolyut ko'rsatkichlarda, ham foiz ko'rsatkichlarda kamayish tendentsiyasiga ega.

Quyida keltirilayotgan jadvalda Urgut tumani bo'yicha soliq to'lovchilarga soliq turlaridan berilgan imtiyozlar va imtiyozlar summasi haqidagi ma'lumot keltirilmoqda:

²² O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining tahliliy ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

**Urgut tumani bo'yicha soliq to'lovchilarning soliq imtiyozlaridan
foydalanish tahlili²³**

Soliq turi	2012 yil	2013 yil	2014 yil
	Jami imtiyozlardagi ulushi (%)	Jami imtiyozlardagi ulushi (%)	Jami imtiyozlardagi ulushi (%)
Imtiyozlar jami	100	100	100
Foyda solig'i	21.9	21.9	24.0
Qo'shilgan qiymat solig'i	54.6	52.4	49.0
Mol-mulk solig'i	14.3	16.5	17.3
Yer solig'i	7.7	7.7	8.0
Boshqa soliq va to'lovlar	1.5	1.5	1.7

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, soliq turlari bo'yicha berilgan imtiyozlarning eng katta qismi qo'shilgan qiymat solig'iga to'g'ri keladi, ya'ni 2012 yilda 54.6 foiz, 2013 yilda 52.4 foiz, 2014 yilda 49.0 foizni tashkil etmoqda. Bu davrni taqqoslaydigan bo'lsak, 2014 yilda deyarli barcha soliqlar (qo'shilgan qiymat solig'i bundan mustasno) bo'yicha berilgan imtiyozlar ham absolyut ko'rsatkichlarda, ham foiz ko'rsatkichlarda o'sish tendentsiyasiga ega.

Imtiyozlarning tarkibiga nazar tashlaydigan bo'lsak, bu o'rinda mol-mulk solig'i bo'yicha berilgan imtiyozlar jami imtiyozlarning chorak qismiga yaqinni tashkil etsa (2014 yilda), foyda solig'i bo'yicha berilgan imtiyozlar 20 foizdan ortiqni egallaydi.

Bu soliq turi (foyda solig'i) bo'yicha berilgan imtiyozlar korxonalarning iqtisodiy faoliyatiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etishini hisobga olsak, bu soliq turidan berilgan imtiyozlarning tahlili katta ahamiyat kasb etadi.

²³ Urgut tuman DSI hisobot ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'idan berilgan imtiyozlar²⁴

Ko'rsatkichlar	2012 yil	2013 yil	2014 yil
	Jami imtiyozlardagi ulushi (%)	Jami imtiyozlardagi ulushi (%)	Jami imtiyozlardagi ulushi (%)
Imtiyozlar jami	100	100	100
Yuridik shaxslarning soliqdan to'liq ozod etilishi	89,7	91,4	89,4
Foydaning ozod etilishi	10,3	8,6	10,6

Olib borilgan tahlillarning ko'rsatishicha, 158-moddaning birinchi qismi bo'yicha berilgan imtiyozlar 2012 yilda 89,7 foizni, 2013 yilda 91,4 foizni, 2014 yilda esa 89,4 foizni tashkil etgan. Foydaning ozod etilishi bo'yicha 2012 yilda 10,3 foizni, 2013 yilda 8,6 foizni, 2014 yilda esa 10,6 foizni tashkil etganini ko'rishimiz mumkin.

Quyida keltirilayotgan jadvalda Urgut tumani bo'yicha soliq to'lovchilarga yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'idan berilgan imtiyozlar summasi haqidagi ma'lumotni tahlil etamiz:

Urgut tumani bo'yicha soliq to'lovchilarga yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'idan berilgan imtiyozlar²⁵

Ko'rsatkichlar	2012 yil	2013 yil	2014 yil
	Jamiga nisbatan, foiz	Jamiga nisbatan, foiz	Jamiga nisbatan, foiz
Imtiyozlar jami	100	100	100
Yuridik shaxslarning soliqdan to'liq ozod etilishi	39.9	38.0	35.0
Foydaning ozod etilishi	60.1	62.0	65.0

²⁴ O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining tahliliy ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

²⁵ Urgut tuman DSI hisobot ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, foyda colig'i bo'yicha berilgan imtiyozlarning eng katta qismi soliqqa tortiladigan foydaning kamaytirilishi tarzidagi imtiyozga to'g'ri kelmoqda va bu o'sish tendentsiyasiga ega.

Soliq kodeksining 179-moddasiga muvofiq jismoniy shaxslarning quyidagi daromadlariga soliq solinmaydi.

Jismoniy shaxslarning quyidagi daromadlariga soliq solinmaydi:

1) moddiy yordam summolari:

- favqulodda holatlar munosabati bilan beriladigan moddiy yordam summolari — to'laligicha;

- vafot etgan xodimning oila a'zolariga yoki oila a'zosi vafot etganligi munosabati bilan xodimga beriladigan moddiy yordam summolari — eng kam ish haqining o'n ikki baravarigacha miqdorda;

- boshqa hollarda — soliq davri uchun eng kam ish haqining o'n ikki baravarigacha miqdorda;

2) yo'llanmalar qiymatini yuridik shaxslar tomonidan to'liq yoki qisman qoplash summolari, turistik yo'llanmalar bundan mustasno:

- O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan sanatoriy-kurort va sog'lomlashtirish muassasalariga yo'llanmalar qiymatini nogironlarga, shu jumladan mazkur korxonada ishlamaydigan nogironlarga to'liq yoki qisman qoplash summolari;

- O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan bolalar oromgohlari va boshqa sog'lomlashtirish oromgohlari, shuningdek ota-onalarning bolalari bilan dam olishiga maxsus mo'ljallangan sanatoriy-kurort va sog'lomlashtirish muassasalariga o'z xodimlarining o'n olti yoshga to'lmagan (o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan o'quvchilar) bolalari uchun yo'llanmalar qiymatini to'liq yoki qisman qoplash summolari;

3) o'z xodimlariga va ularning bolalariga ambulatoriya va (yoki) statsionar tibbiy xizmat ko'rsatilganligi uchun ish beruvchi tomonidan to'langan summalar, shuningdek yuridik shaxsning davolash va tibbiy xizmat ko'rsatganlik, nogironlik profilaktikasi va nogironlarning salomatligini tiklashga

doir texnik vositalarni olish uchun qilingan xarajatlari. Xodimlarni davolaganlik, ularga tibbiy xizmat ko'rsatganlik uchun yuridik shaxslar tomonidan sog'liqni saqlash muassasalariga naqd pulsiz haq to'langan taqdirda, shuningdek sog'liqni saqlash tashkilotlari tomonidan yozib berilgan hujjatlar asosida ushbu maqsadlar uchun mo'ljallangan naqd pul mablag'lari bevosita xodimga, xodim yo'qligida, uning oila a'zolariga, ota-onalariga berilgan yoki mazkur maqsadlar uchun mo'ljallangan mablag'lar xodimning bankdagi hisobvarag'iga kiritilgan taqdirda, ushbu daromadlar soliq solishdan ozod qilinadi;

4) O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining O'zbekiston Respublikasidan tashqariga ishlash uchun yuborilishi munosabati bilan budjet tashkilotlaridan chet el valyutasida olingan ish haqi summalar va boshqa summalar, qonun hujjatlarida belgilangan summalar doirasida;

5) vaqtinchalik bir martalik ishlarni bajarishdan olingan daromadlar, agar bunday ishlarga yollash vaqtinchalik bir martalik ish bilan ta'minlash markazlari ko'magida amalga oshirilayotgan bo'lsa;

6) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'laganidan keyin xususiy korxona mulkdori, oilaviy korxona ishtirokchisi hamda fermer xo'jaligi boshlig'i ixtiyorida qoladigan foyda summasi;

7) O'zbekiston Respublikasining davlat mukofotlari va davlat pul mukofotlariga sazovor bo'lgan jismoniy shaxslar olgan bir yo'la beriladigan davlat pul mukofoti yoki shunga teng bahodagi esdalik sovg'alarining qiymati, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida bir yo'la beriladigan pul mukofoti;

8) xalqaro sport musobaqalarida sovrinli o'rinlarni egallaganligi uchun sportchilar olgan bir yo'la beriladigan pul mukofoti;

9) donorlik uchun pul mukofotlari, shuningdek qon yiqqanlik uchun tibbiyot muassasalari xodimlari oladigan summalar;

10) jismoniy shaxslarga xususiy mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulkni sotishdan olinadigan daromadlar, bundan:

- qimmatli qog'ozlarni, yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarini (paylarini);

- yashash uchun mo'ljallanmagan joylarni;

- ketma-ket keladigan o'n ikki oylik davr ichida bir martadan ortiq bitim tuzilgan taqdirda, uy-joylarni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar mustasno.

11) uy xo'jaligida, shu jumladan dehqon xo'jaligida etishtirilgan hayvonlarni (qoramol, parranda, mo'ynali va boshqa hayvonlar, baliq va boshqalarni) tirik holda hamda ularni so'yib, mahsulotlarini xom yoki qayta ishlangan holda, sanoatda qayta ishlashdan tashqari, tabiiy va qayta ishlangan chorvachilik, asalarichilik va dehqonchilik mahsulotlarini sotishdan olinadigan daromadlar, bundan manzarali bog'dorchilik (gulchilik) mahsulotlari mustasno. Mazkur daromadlar soliq to'lovchi tegishli mahalliy davlat hokimiyati organi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi, bog'dorchilik, uzumchilik yoki polizchilik shirkatlarining boshqaruvlari tomonidan berilgan, realizatsiya qilingan mahsulot soliq to'lovchi tomonidan unga yoki uning oila a'zolariga ajratilgan yer uchastkasida etishtirilganligini tasdiqlovchi belgilangan shakldagi hujjatni taqdim etgan taqdirda, soliq solishdan ozod qilinadi;

12) xalqaro hamda respublika tanlovlari va musobaqalarida olingan buyum tarzidagi sovrinlarning qiymati;

13) yuridik shaxsdan soliq davri mobaynida eng kam ish haqining olti baravari miqdorigacha bo'lgan qiymatdagi:

- xodimlar natura shaklida olgan sovg'alar;

- ilgari mazkur yuridik shaxsning xodimlari bo'lgan ishlamayotgan pensionerlar va mehnat qobiliyatini yo'qotgan shaxslar, vafot etgan xodimning oila a'zolari tomonidan olingan sovg'alar va boshqa turlardagi yordam.

14) jismoniy shaxslardan meros yoki hadya tartibida, shuningdek tekin olingan pul va natura shaklidagi daromadlar, bundan fan, adabiyot va san'at asarlarining, adabiyot va san'at asarlari ijrochilarining, shuningdek kashfiyotlar,

ixtirolar va sanoat namunalari mualliflarining merosxo'rlariga (huquqiy vorislariga) to'lanadigan pul mukofotlari mustasno;

15) davlat zayomining obligatsiyalari bo'yicha yutuqlar, shuningdek O'zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha foizlar, lotereya bo'yicha yutuqlar;

16) jamg'arma sertifikatlari, davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha daromadlar, shuningdek banklardagi omonatlar bo'yicha foizlar hamda yutuqlar;

17) xalqaro hamda chet el tashkilotlari va fondlaridan, shuningdek ilmiy-texnika hamkorligi sohasidagi O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari doirasida bevosita jismoniy shaxs grant beruvchidan yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan vakil qilingan fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish bo'yicha organning xulosasi bo'lgan taqdirda, yuridik shaxsdan - grant oluvchidan olgan grant summasi;

18) fuqarolarning soliq solinadigan ish haqi va boshqa daromadlarining davlat korxonalari mol-mulkini sotib olish, xususiylashtirilayotgan korxonalar aksiyalarini olish uchun yo'naltiriladigan summalari, shuningdek dividendlar tarzida olingan va dividend to'lagan yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) yo'naltirilgan daromadlar. Ushbu bandda nazarda tutilgan imtiyoz qo'llanilganidan so'ng bir yil ichida muassislar (ishtirokchilar) tarkibidan chiqilganda (chiqib ketilganda), mazkur mol-mulk sotilganda yoxud tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulki uning muassislari (ishtirokchilari) o'rtasida taqsimlanganda ilgari soliq solishdan ozod qilingan daromadlarga umumiy asoslarda soliq solinishi kerak;

19) mehnat shartnomasi bekor qilinganida eng kam ish haqining o'n ikki baravari miqdori doirasida to'lanadigan ishdan bo'shatish nafaqasi, qonun hujjatlarida belgilangan boshqa nafaqalar, bundan vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqalari (shu jumladan oilaning bemor a'zosini parvarishlash nafaqasi) mustasno, shuningdek fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, xayriya va ekologiya jamg'armalaridan jismoniy shaxslarga beriladigan yordam tusidagi to'lovlar;

20) olingan alimentlar;

21) fuqarolarning sug'urta to'voni sifatida oladigan summalari;

22) qonun hujjatlarida davlat stipendiyalari uchun belgilangan miqdorlarda ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari tomonidan to'lanadigan stipendiyalar;

23) uy-joy-kommunal xizmatlariga haq to'lash bo'yicha har oylik kompensatsiya pul to'lovlari;

24) davlat pensiyalari;

25) jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallari, ular bo'yicha foiz daromadlari, shuningdek jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlari;

26) fuqarolarning soliq solinadigan va O'zbekiston Respublikasida sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lgan yuridik shaxslarga mol-mulkni sug'urta qilish hamda hayotni uzoq muddatli sug'urta qilish bo'yicha sug'urta mukofotlari to'lovi uchun yo'naltiriladigan ish haqi va boshqa daromadlarining summalari;

27) yuridik shaxslar muassislarining (ishtirokchilarining) ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik sub'ektiga - yuridik shaxsga uning majburiyatlarini bajarish uchun yo'naltiriladigan daromadlari summalari. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to'xtatilgan va faoliyat qayta tiklangan taqdirda, ushbu imtiyoz qo'llanilmaydi va soliq summasi imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun to'liq miqdorda undiriladi;

28) quyidagi jismoniy shaxslarning soliq solinadigan ish haqi va boshqa daromadlari summalari:

- yosh oila a'zolari tomonidan yakka tartibda uy-joyni qurish, rekonstruktsiya qilish va sotib olish uchun yoki ko'p kvartirali uydagi kvartirani rekonstruktsiya qilish va sotib olish uchun olingan ipoteka kreditlarini hamda ular bo'yicha hisoblangan foizlarni qoplash uchun yo'naltirilganda;

- qishloq joylarda namunaviy loyihalar bo'yicha yakka tartibda uy-joy qurishni ushbu maqsadlar uchun kreditlar berish qonun hujjatlariga muvofiq zimmasiga yuklatilgan banklarning kreditlari hisobidan amalga oshirayotgan

quruvchi shaxslar tomonidan olingan ipoteka kreditlarini hamda ular bo'yicha hisoblangan foizlarni qoplash uchun yo'naltirilganda.

Ushbu bandda ko'rsatilgan mol-mulk olingan (mol-mulkka bo'lgan huquq davlat ro'yxatidan o'tkazilgan) sanadan e'tiboran besh yil ichida sotilsa, mazkur bandda nazarda tutilgan daromadlarga belgilangan tartibda soliq solinadi.

29) fuqarolarning soliq solinadigan ish haqi va boshqa daromadlarining:

- O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlarida ta'lim olish uchun (o'zining o'qishi yoki yigirma olti yoshga to'lmagan farzandlarining o'qishi uchun) yo'naltiriladigan summolari;

- O'zbekiston Respublikasi Xalq bankidagi fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ixtiyoriy ravishda yo'naltiriladigan summolari.

30) jismoniy shaxslardan tekin (shu jumladan hadya shartnomasi bo'yicha) olingan ulushlar, paylar va aktsiyalar tarzidagi daromadlar, agar mazkur ulushlar, paylar va aktsiyalarni berish yaqin qarindoshlar o'rtasida amalga oshirilsa.

31) paxta yig'im-terimi bo'yicha qishloq xo'jaligi ishlariga jalb qilinadigan jismoniy shaxslarning bu ishlarni bajarganlik uchun olgan daromadlari.

Soliq solishdan quyidagi jismoniy shaxslar to'liq ozod qilinadi:

- 1) xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalarining boshliqlari va xodimlari, konsullik muassasalarining mansabdor shaxslari, ularning o'zlari bilan birga yashaydigan oila a'zolari, agar ular O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lmasa, - O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olinadigan, diplomatik va konsullik xizmati bilan bog'liq bo'lmagan daromadlaridan tashqari barcha daromadlari bo'yicha;

- 2) xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalarining ma'muriy-texnik xodimlari hamda ularning o'zlari bilan birga yashaydigan oila a'zolari, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa, - O'zbekiston

Respublikasidagi manbalardan olinadigan, diplomatik va konsullik xizmati bilan bog'liq bo'lmagan daromadlaridan tashqari barcha daromadlari bo'yicha;

3) xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalariga, konsullik muassasalariga xizmat ko'rsatadigan xodimlar tarkibiga kirgan shaxslar, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa, - o'z xizmati yuzasidan oladigan barcha daromadlari bo'yicha;

4) xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari xodimlarining uylarida ishlovchilar, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa, - o'z xizmati yuzasidan oladigan barcha daromadlari bo'yicha;

5) xalqaro nohukumat tashkilotlarning mansabdor shaxslari - agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa, ularning ushbu tashkilotlarda olgan daromadlari bo'yicha;

6) O'zbekiston Respublikasi mudofaa, ichki ishlar, favqulodda vaziyatlar vazirliklarining, Milliy xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilari, ichki ishlar organlari hamda bojxona organlarining oddiy xizmatchilari va boshliqlari tarkibiga kiruvchi shaxslar, shuningdek o'quv yoki sinov yig'inlariga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar - xizmatni o'tash (xizmat vazifalarini bajarish) munosabati bilan olgan pul ta'minoti, pul mukofotlari va boshqa to'lovlar summalari bo'yicha;

7) prokuratura organlarining daraja unvonlariga ega bo'lgan xodimlari - ularning xizmat vazifalarini bajarish munosabati bilan olgan daromadlari bo'yicha;

8) gastrol-kontsert faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyasi bo'lgan shaxslar - ushbu faoliyatdan olingan daromadlari bo'yicha.

Quyidagi jismoniy shaxslar soliq solishdan qisman (daromad olingan har bir oy uchun eng kam ish haqining to'rt baravari miqdoridagi daromadlar bo'yicha) ozod qilinadi:

1) "O'zbekiston Qahramoni", Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo'lgan shaxslar, uchala darajadagi Shuhrat

ordeni bilan taqdirlangan shaxslar. Mazkur imtiyoz tegishincha “O‘zbekiston Qahramoni” unvoni berilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma, Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni daftarchalari, orden daftarchasi yoki mudofaa ishlari bo‘yicha bo‘limning ma‘lumotnomasi asosida beriladi;

2) urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek doirasi qonun hujjatlari bilan belgilanuvchi ularga tenglashtirilgan shaxslar. Mazkur imtiyoz urush nogironining (qatnashchisining) tegishli guvohnomasi yoki mudofaa ishlari bo‘yicha bo‘limning yoxud boshqa vakolatli organning ma‘lumotnomasi asosida, boshqa nogironlarga (qatnashchilarga) nogironning (qatnashchining) imtiyozlarga bo‘lgan huquqi to‘g‘risidagi guvohnoma asosida beriladi;

3) bolalikdan nogiron bo‘lib qolganlar, shuningdek I va II guruh nogironlari. Imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma‘lumotnomasi asosida beriladi;

4) sobiq SSSRni, O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoki harbiy xizmatning yoxud ichki ishlar organlaridagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog‘ida yaralanganligi, kontuziya bo‘lganligi yoki shikastlanganligi oqibatida yoxud frontda bo‘lish bilan bog‘liq kasallik tufayli halok bo‘lgan harbiy xizmatchilarning hamda ichki ishlar organlari xodimlarining ota-onalari va beva xotinlari (beva erlari). Imtiyoz “Halok bo‘lgan askarning beva xotini (beva eri, onasi, otasi)” yoki “Ichki ishlar organlari halok bo‘lgan xodimining beva xotini (beva eri, onasi, otasi)” shtampi qo‘yilgan yoxud pensiya guvohnomasini bergan muassasa rahbarining imzosi va ushbu muassasa muhri bilan tasdiqlangan tegishli yozuvli pensiya guvohnomasi asosida beriladi. Agar mazkur shaxslar pensioner bo‘lmasa, imtiyoz ularga sobiq SSSR Mudofaa vazirligi, Davlat xavfsizlik qo‘mitasi yoki Ichki ishlar vazirligining, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati yoxud Ichki ishlar vazirligining tegishli organlari tomonidan berilgan harbiy xizmatchining yoki ichki ishlar organi xodimining halok bo‘lganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotnoma asosida beriladi. Sobiq SSSRni, O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoki

harbiy xizmatning yoxud ichki ishlar organlaridagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog'ida yoki frontda bo'lish bilan bog'liq kasallik tufayli halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning yoxud ichki ishlar organlari xodimlarining beva xotinlariga (beva erlariga) imtiyoz faqat ular yangi nikohdan o'tmagan taqdirda beriladi;

5) ikki va undan ortiq o'n olti yoshga to'lmagan bolalari bor yolg'iz onalar. Imtiyoz har bir bola uchun fuqarolik holatlari dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlari tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotnoma asosida beriladi;

6) ikki va undan ortiq o'n olti yoshga to'lmagan bolalari bor va boquvchisini yo'qotganlik uchun pensiya olmaydigan beva ayol va beva erkaklar. Imtiyoz urning (xotinning) vafot etganligi to'g'risidagi guvohnoma, bolalar tug'ilganligi to'g'risidagi guvohnoma, yangi nikohdan o'tmaganlik hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tuman (shahar) bo'limining boquvchisini yo'qotganlik uchun pensiya olinmasligi haqidagi ma'lumotnomasi taqdim etilgan taqdirda beriladi;

7) bolaligidan nogiron bo'lgan, doimiy parvarishni talab qiladigan farzandi bilan birga yashab, uni tarbiyalayotgan ota-onadan biri. Imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki sog'liqni saqlash muassasasining doimiy parvarish zarurligini tasdiqlovchi tibbiy ma'lumotnomasi, birgalikda yashashga taalluqli qismida - fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining ma'lumotnomasi asosida beriladi.

Imtiyozlar tegishli hujjatlar taqdim etilgan taqdirda qo'llaniladi. Imtiyozlarga bo'lgan huquqlar kalendar yili davomida vujudga kelgan taqdirda, imtiyozlarga bo'lgan huquqlar vujudga kelgan paytdan e'tiboran qo'llaniladi.

Agar jismoniy shaxs bir nechta asos bo'yicha imtiyozlarga bo'lgan huquqqa ega bo'lsa, unga xohishiga qarab faqat bitta imtiyoz beriladi.

Imtiyozni qo'llash jismoniy shaxsning asosiy ish (xizmat, o'qish) joyi bo'yicha, asosiy ish joyi bo'lmagan taqdirda - yashash joyidagi davlat soliq

xizmati organlari tomonidan jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiya asosida soliqni hisoblab chiqarish chog'ida amalga oshiriladi. Imtiyozga bo'lgan huquq yo'qotilgan taqdirda, jismoniy shaxs imtiyoz yo'qotilgan paytdan e'tiboran o'n besh kun ichida bu haqda undan soliqni ushlab qoladigan yuridik shaxsga ma'lum qilishi kerak.

Imtiyozlar jismoniy shaxslarning foizlar va dividendlar tarzida olingan daromadlariga, shuningdek mol-mulkni ijaraga topshirishdan olingan daromadlariga ham tatbiq etiladi. Agar foizlar va dividendlar asosiy ish joyi bo'yicha hisoblansa, imtiyozni qo'llash asosiy ish joyi bo'yicha amalga oshiriladi, agar foizlar va dividendlar asosiy bo'lmagan ish joyi bo'yicha hisoblansa, imtiyoz jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiya asosida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblab chiqarish chog'ida jismoniy shaxsning yashash joyidagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan qo'llaniladi. Shunga o'xshash tartib mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlarga nisbatan ham qo'llaniladi.

Iqtisodiyotimizning jadal va mutanosib rivojlanib borayotgani aholi hayot darajasi va sifatini izchil oshirish uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiya va stipendiyalar hajmi o'tgan yili 23,2 foizga oshdi. Aholining jon boshiga to'g'ri keladigan real daromadlar esa 10,2 foizga ko'paydi.

Aholi daromadlari tarkibida tadbirkorlik faoliyatidan olinayotgan daromadlar ulushi toboraortib bormoqda. Mustaqillik yillarida bu boradagi ko'rsatkich 10,6 foizdan 52 foizga o'sdi. Bu Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlaridagi eng yuqori ko'rsatkichlardan biridir.

Bu haqda so'z yuritganda, sobiq ittifoq hududidagi boshqa mamlakatlardan farqli ravishda, O'zbekistonda daromadlar darajasi bo'yicha aholining keskin tabaqalanish holati mavjud emasligini alohida ta'kidlash lozim. Eng ko'p va eng kam daromad oladigan aholi o'rtasidagi farq 2000 yildagi 53,3 barobardan bugungi kunda 7,8 barobarga tushdi. Bu o'rinda jamiyatda ijtimoiy

barqarorlikning mezoni hisoblangan bu ko'rsatkich xalqaro me'yorlarga ko'ra, 10 barobar qilib belgilanganini aytib o'tish lozim.

Jahon tajribasida jamiyatda ijtimoiy tabaqalanish va xavfsizlik darajasini baholashning yana bir mezoni – Jini indeksidan keng foydalaniladi. Misol uchun, O'zbekistonda mustaqillik yillarida Jini indeksi ko'rsatkichi 0,40 dan 0,296 ga pasaydi. Bu natija, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tavsiyalariga binoan 0,35-0,37 miqdorida belgilangan xalqaro standartlar nuqtai nazaridan qaraganda, aholimizning ijtimoiy farovonligi muttasil o'sib borayotganidan dalolat beradi.

Odamlarning daromadlari ortishi bilan oilalarning moddiy ahvoli ham sifat jihatdan o'zgarib bormoqda. Tadqiqotlarga qaraganda, bugungi kunda yurtimizdagi oilalarning 94 foizi xolodilniklar, 84 foizi turli oshxona elektr jihozlariga, 63 foizi kir yuvish mashinalari, yarmidan ko'pi kompyuter, changyutgich, mikroto'liqlik pechlarga ega, uchdan bir qismi esa konditsionerlardan foydalanmoqda.

Mustaqillik yillarida aholining televizorlar bilan, ayniqsa, mutlaqo yangi avlod televizorlari – plazma ekranli rangli televizorlar bilan ta'minlanishi 1,6 barobar, engil avtomobillar bilan ta'minlanishi 3,5 marta oshgani ham oilalarimizning farovonligi yuksalib borayotganining yaqqol tasdiq'idir. Bugungi kunda deyarli har ikki oiladan biri shaxsiy transport vositasiga ega va bu mashinalar aynan yurtimizda ishlab chiqarilgani barchamizga mamnuniyat va g'urur bag'ishlaydi.

Qisqa vaqt ichida hayotimizga, deyarli har bir oilaga eng zamonaviy mobil telefonlarning bir necha yangi avlodi, noutbuklar, tyunerlar, DVD pristavkalari, sun'iy yo'ldosh orqali faoliyat ko'rsatadigan va kabelli televidenie, duxovkali elektr pechlar, muzlatgich kameralar, suv isitish boylerlari va boshqa mutlaqo yangi, yuqori texnologiyalar asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlar kirib keldi. Bugun biz bu narsalarga unchalik e'tibor ham bermaymiz va ularni odatdagi buyumlar sifatida qabul qilamiz. Holbuki, yigirma yil avval bunday ashyolar haqida hech narsa bilmasdik, hozirgi kunda esa ularsiz hayotimizni tasavvur

ham qilolmaymiz. Eng muhimi, ushbu mahsulotlarning aksariyatini mamlakatimiz korxonalarida o'zimiz ishlab chiqaryapmiz.

Fuqarolarimizning uy-joy sharoitlari ham tubdan yaxshilanib bormoqda. Mamlakatimizning barcha hududlarida uy-joylar qurish sur'ati va ko'lami yil sayin kengaymoqda. Mustaqillik yillarida uy-joy fondining umumiy maydoni 1,9 barobar oshdi.

Aholi soni ko'payib borayotganiga qaramasdan, odamlarni uy-joy bilan ta'minlashda jon boshiga to'g'ri keladigan uy-joy maydonini 12,4 kvadrat metrdan 15,4 kvadrat metrga oshirishga erishildi. Uy-joy fondining deyarli barchasi xususiy mulk sifatida aholi tasarrufida ekanini aytish lozim. Vaholanki, ko'plab rivojlangan davlatlarda oilalarning yarmidan ko'pi ijaraga olingan xonadon va uylarda yashaydi.

Qishloq joylarda namunaviy loyihalar asosida yakka tartibda uy-joylar qurish bo'yicha maqsadli davlat dasturining amalga oshirilishi alohida e'tiborga loyiqdir. Ushbu dastur doirasida 2014 yilda 11 mingta yangi turar joylar barpo etildi. Bugungi kunda shaharlar, ayniqsa, qishloqlarda barpo etilgan, shiftlari baland, xonalari shinam va yorug' yangi uylar pishiq g'ishtdan qurilgan bo'lib, ularni bunyod etishda zamonaviy qurilish va tom yopish materiallaridan foydalanilmoqda, ular zarur xo'jalik binolariga ega. Bunday qishloq uylari sifati va sharoitining qulayligi bilan hech bir jihatdan shahardagi uy-joylardan aslo qolishmaydi²⁶.

Shunday qilib, ushbu savolning asosiy natijalari sifatida quyidagi xulosalar chiqarildi:

- tahlillarning ko'rsatishicha, soliqlardan berilgan imtiyozlar qiymati o'sgani sayin, ulardan foydalanuvchilar soni ham shunga muvofiq tarzda oshib bormoqda yoki aksincha. Shuningdek, imtiyozni berilishidagi ayrim nomukammalliklar ularning samarali ishlashiga salbiy ta'sir o'tkazmoqda;

²⁶ I.A.Karimov. "2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir". //Halq so'zi. 2015 yil 19 yanvar.

- qilingan tahlillardan kelib chiqadigan bo'lsak, ijtimoiy xarakterdagi imtiyozlar mamlakatimizda salmoqli miqdorga ega. Shuni hisobga oladigan bo'lsak, bu turdagi imtiyozlardan voz kechish budjet daromadlarini o'sishiga olib kelmaydi. Iqtisodiyotni rivojlantirish xarakteridagi imtiyozlarni berish natijasida, istiqbolda budjet daromadlarining oshishi mumkinligini hisobga olish maqsadga muvofiq;

- mamlakatimizda soliq imtiyozlari sonining ko'pligi iqtisodiyotning o'tish davriga xos bo'lgan umumiy holat sifatida qaralishi bilan bir qatorda, bozor munosabatlarini yanada erkinlashtirilishi sharoitida individual va kam ahamiyatga ega bo'lgan imtiyozlar sonini tobora kamaytirib borish talab etiladi;

- soliq imtiyozlarining berilishi davlat budjeti daromadlarining ma'lum qismidan voz kechishi orqali amalga oshmoqda. Shu bilan birga, bu imtiyozlarning tizimda samarali ishlashini ta'minlash uchun parallel ravishda qilinishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar ham mavjudki, ular soliq, pul-kredit va davlatning iqtisodiy boshqaruv siyosati bilan muvofiqlashtirilishi zarur;

- imtiyozlarning rag'batlantiruvchanlik ta'siri birinchi navbatda, mamlakatda ilmiy-texnik taraqqiyotni jadallashtirishga va uni ishlab chiqarishga joriy etishga, jahon bozorida raqobatbardosh hamda keng xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarishni rivojlantirishga yo'naltirilishi lozim.

2.2. Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishiga soliqlardan beriladigan imtiyozlarning ta'siri tahlili.

Davlat budjeti o'zining mohiyatidan kelib chiqib, doimiy ravishda daromadlarni xarajatlar bilan barobar bo'lishi uchun intilib kelganligi barchaga ma'lum. Shu nuqtai-nazardan, u doimo soliq to'lovchining soliq borasidagi majburiyatlarini eng yuqori bo'lishiga harakat qiladi.

Ammo bu yerda bir narsani e'tirof etish kerakki, budget o'zining manfaatlari yo'lida hech qachon tadbirkorga ortiqcha soliq yukini yuklamasligi, aksincha, "oltin tuxum qo'yadigan tovuqni so'yib bo'lmaydi" degan aqidaga rioya qilgan holda, uning talab va istaklari bilan ham hisoblashishi talab etiladi. O'z navbatida tadbirkor ham budget manfaatlarini o'z manfaatlaridan kam ko'rmasligi lozim.

Keyingi yillar ichida soliq imtiyozlarining muammosi bilan shug'ullanish ko'pgina olimlarning amaliy faoliyatiga ko'chganligi bilan e'tiborlidir. Barchamizga ma'lumki, dunyoning eng rivojlangan davlatlaridan biri hisoblangan AQShda ham soliqlar faqatgina fiskal funktsiya bilan cheklanib qolmay, balki davlatning iqtisodiy siyosatini amalga oshirishning samarali vositasi ham hisoblanadi.

Iqtisodiyotni rivojlantirishni pirovard maqsad qilib olgan har qanday demokratik davlatda yangi soliqlarni joriy etish, boshqalarini bekor qilish, soliq imtiyozlarini qo'llab yoki ularni qisqartirib tadbirkorlarga rag'batlantiruvchi va taqiqlovchi ta'sir o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

Xorijiy davlatlarda o'tkazilgan islohotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, aynan soliq stavkasini bosqichma-bosqich kamaytirish rag'batlantiruvchi ta'sir o'tkazadi, soliq stavkasini keskin kamaytirish (hatto pasaytirilgan stavka past darajada bo'lsa ham) bundan keladigan samarani pasayishiga olib keladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, to'g'ri soliqlarning pasaytirilishi o'z-o'zidan budget yo'qotgan mablag'ni qoplash masalasini keltirib chiqaradi. Bunga javoban bu davlatlar bilvosita soliqlar stavkasini ko'tarish yo'lidan bordi.

O'tgan asrning 90 yillari o'rtalarida Germaniyada QQSning umumiy stavkasi 1 foizga, Yaponiyada sotuvdan olinadigan soliq 3 foizdan 5 foizga ko'tarildi. Shveytsariyada QQS joriy etildi. Shuningdek, ayrim davlatlarda yer solig'ining oshishi ko'zda tutildi.

XX-asrning 80-90 yillaridan boshlab rivojlangan davlatlar iqtisodiyotida soliq imtiyozlarini qisqartirish yo'lidan borganligiga ba'zi bir ob'ektiv va sub'ektiv omillarning ta'siri katta bo'ldi.

Shunday bo'lsada, imtiyozlar sonini to'liq qisqartirishni hech qaysi davlat amaliyotida ko'rganimiz yo'q. Soliq imtiyozlari yordamida ustuvor tarmoqlarni investitsiyalash, ekologik toza mahsulot ishlab chiqarishga talabning ortib borayotganligi sababli, ushbu sohada yuqori texnologiya asosida ishlab chiqarishni tashkil etish uchun ham imtiyozlardan keng foydalanilmoqda.

Soliq imtiyozlarini qisqartirish borasida Rossiya Federatsiyasida ham 2002 yilning 1 yanvaridan boshlab katta qadam tashlandi. Xususan, foyda solig'i stavkasi 35 foizdan 24 foizgacha pasaytirildi.

Tadbirkorlarga bundan buyon mahsulot tannarxiga reklama (hech qanday chegaralarsiz) va vakillik xarajatlarini kiritishlariga ruxsat berildi. Shuningdek, oldin amal qilgan investitsion va ijtimoiy (sotsial) imtiyozlar bekor qilindi. Bunday siyosatning asosida esa foyda solig'ining pasayishi orqali yalpi taklifni ko'paytirgan holda, soliq to'lovchi ixtiyorida qoladigan foyda hisobiga yalpi talabni oshirish orqali tadbirkorlarning investitsion faolligini oshirish ko'zda tutiladi.

Bizning mamlakatimizda ham foyda solig'i stavkasining yildan-yilga pasayib borayotganligi soliq to'lovchilarimizning investitsion qobiliyatlarini oshirishga yo'naltirilganligi bilan diqqatga sazovordir.

Lekin, soliq tizimidagi bu kabi rag'batlantiruvchi jihatlar tadbirkorlarimiz ruhiyatiga ko'chib ulgurganicha yo'q. Misol uchun, keyingi yillar davomida bu soliq stavkasining bir necha foizga pasaytirilganligi ishlab chiqaruvchilarimizning investitsion faolligini oshirdi deb ayta olmaymiz.

Shu bilan birga, ko'pchilik iqtisodchilar ta'kidlaganidek, soliq stavkasining pasayishi foyda solig'ining davlat budjeti daromadlaridagi ulushini oshishiga olib keladi, degan fikrlarini batamom isbotlab berganicha yo'q. Fikrimizni qo'yidagi jadval ma'lumotlari ham tasdiqlab turganligi bejiz emas.

**Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha tushumlarni
YaIMga nisbatan hajmi tahlili (foizlarda)²⁷**

Ko'rsatkichlar	2008 yil	2009y il	2010 yil	2011 yil	2012 yil	2013 yil	2014 yil
Yalpi ichki mahsulot	100	100	100	100	100	100	100
Jami soliq tushumlari	22,7	29,0	22,5	21,2	20,5	20,2	19,8
Korxonalar foyda solig'i	3,7	3,6	2,8	2,3	1,7	1,6	1,5
Soliq stavkasi	12	10	9	9	9	9	9

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda yildan-yilga foyda solig'i stavkasi pasayib boruvchi xarakter kasb etmoqda. Haqli savol tug'iladi - bundan ko'zlangan maqsadga erishilyaptimi, ya'ni korxonalar hisobiga qoldirilayotgan mablag'lar samarali foydalanilyaptimi? Albatta, bu savolning javobi har doim ham ijobiy bo'lmaydi. Chunki, aksariyat tadbirkorlarimiz pasaytirilgan stavkalarining tub mohiyatini anglab etishganicha yo'q.

Mamlakatimizda rivojlangan davlatlar an'anasiga tayangan holda foyda solig'i stakalari pasaytirildi. Ushbu pasaytirilgan stavkalar natijasida budjet ko'radigan zararlar quyidagi manbalar hisobidan qoplanishi mumkin:

1) foyda solig'i stavkasi pasaytirilishi natijasida korxona hisobiga foydaning ko'proq qismi tegishi mumkin va natijada, ishlab chiqarishga mablag'larni qayta investitsiyalash (reinvestitsiya) jarayoni tezroq amalga oshadi. Ishlab chiqarishning rivojlanishi natijasida budjetga tushadigan mablag'lar salmog'i oshishi mumkin;

2) yangi tashkil topayotgan tadbirkorlik sub'ektlari hisobidan budjetga kerakli miqdorda mablag'lar tushishi ehtimoldan xoli emas;

3) keng miqyosda berilgan imtiyozlar tizimini qisqartirish natijasida budjet yo'qotgan mablag'larni qayta jalb qilish mumkin;

²⁷ O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining tahliliy ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

4) boshqa soliq (QQS, mulk) to'lovlarining stavkalarini oshirish hisobiga ham budjetning daromad qismini to'ldirish mumkin.

Jadval ma'lumotlarining ko'rsatishicha, foyda solig'i stavkasining pasayishiga proportsional ravishda soliq tushumi ham kamayib bormoqda. Stavkaning pasayishi natijasida korxona ixtiyorida qoladigan summani investitsiya jarayoniga jalb etish holatlari nihoyatda sust darajada amalga oshmoqda va kutilgan natijaga erishilmayapti.

Keyingi yillar davomida korxonalarining asosiy ishlab chiqarishni kengaytirish va rekonstruktsiyalashga qaratilgan xarajatlarining soliqqa tortiladigan daromaddan chiqarib tashlanishiga berilgan imtiyoz summasining kamayayotganligi bilan ham ifodalash mumkin.

6-jadval

Soliqqa tortiladigan daromadning kamaytirilishi ko'rinishidagi imtiyozning dinamikasi²⁸

Ko'rsatkichlar	2012 yil	2013 yil	2014 yil
Soliqqa tortiladigan foydaning kamaytirilishi ko'rinishidagi imtiyoz summasi (mlrd. so'mda)	6,3	2,8	1,8
Ishlab chiqarishni modernizatsiyalashga, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashga, yangi texnologik jihoz xarid qilishga, ishlab chiqarishni yangi qurilish shaklida kengaytirishga, ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun foydalaniladigan binolar va inshootlarni rekonstruktsiya qilishga, shuningdek ushbu maqsadlar uchun olingan kreditlarni uzishga, lizing ob'ekti qiymatining o'rnini qoplashga yo'naltiriladigan mablag'lar summasiga, tegishli soliq davrida hisoblangan amortizatsiyani chegirib tashlagan holda, biroq soliq solinadigan foydaning 30 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda. (mlrd. so'mda)	4,7	1,3	1,2

Keltirilgan jadval ma'lumotlariga tayangan holda, aytish lozimki, yildan-yilga bu ko'rinishdagi imtiyoz summasi kamayib bormoqda. Shunga muvofiq

²⁸ O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining tahliliy ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

ravishda korxonalarning soliqqa tortiladigan foydaning investitsiya maqsadlaridagi xarajatlariga kamaytirish ko'rinishidagi imtiyozning ham pasayib borayotganligini kuzatish mumkin.

Bundan tashqari, bizning hozirgi davrimizda budjet daromadlarini kamaytirish hisobiga korxonalar ixtiyorida qoladigan daromadlar to'liq investitsiyalarga sarflanadi, deyish biroz noto'g'ri bo'lar edi.

Chunki, iqtisodiy qiyinchiliklar sharoitida daromadlarning bir qismi iste'molni qondirishga, xususan mehnatga haq to'lash xarajatlarini oshirishga, korxonaning qarzlarini to'lash va boshqa tadbirlarga sarflanishi ehtimoldan xoli emas.

Soliq imtiyozlarini bekor qilish orqali foyda solig'i bo'yicha stavkalarining pasaytirilishi siyosati o'zining tub mohiyati bilan iqtisodiyotni tartibga solishdagi samarasi kamroq ekanligi ko'rinib qoldi.

Soliq qonunchiligida imtiyozlarning joriy etilishi ularning rag'batlantiruvchi samarasini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Shuningdek, imtiyozlarni sifatli tartibga solish va soliq idoralari tomonidan nazoratni kuchaytirish orqali foyda solig'idan qochish imkoniyatini minimal darajaga keltirish talab etiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, soliqlardan berilayotgan imtiyozlar kapitalning qo'yilishi, iqtisodiy faoliyat turlari, soliq to'lovchilar kategoriyasidan qat'iy nazar neytral tarzda bo'lishi talab etiladi. Tom ma'noda esa soliq imtiyozlari takror ishlab chiqarishning boshlang'ich bosqichlari (fundamental tadqiqotlarga kapital qo'yishdan tortib amaldagi ishlab chiqarishga investitsiya qo'yishgacha)ni rag'batlantirishga qaratilgan bo'lishi lozim.

III-BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYA QILISH SHAROITIDA BYUDJET DAROMADLARINING SHAKLLANISHIGA SOLIQ IMTIYOZLARINING TA'SIRINING TAHLILI.

3.1. Soliq imtiyozlaridan samarali foydalanish mexanizmini takomillashtirish.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida muhim vazifalardan biri etib, bevosita korxonalar zimmasidagi “soliq yuki”ni kamaytirish qilib belgilanganligi o’sha davrdagi vaziyatning jiddiyligidan dalolat berardi. Bizning nazarimizda, korxonalar zimmasiga tushuvchi soliq yukiga baho berishda foizli tahlillar real vaziyatni to’liq aks ettirib bermaydi. Chunki, korxonaning moliyaviy imkoniyatlari (xususan foyda olish) bozor talablariga to’liq javob bersagina, u qiyinchiliksiz ma’lum darajadagi soliq yukini ko’tara oladi. Agar uning foyda olish imkoniyatlari past darajada bo’lsa, soliq yukining eng past ko’rinishi ham korxonani qiyin ahvolga solib qo’yishi mumkin. Bugungi kunda ko’pchilik korxonalarimizning ana shunday qiyin sharoitda faoliyat ko’rsatayotganligini ta’kidlab o’tish joiz. Bunday sharoitga tushib qolishning sabablari qatoriga ularning rentabellik darajasining pastligi, davlatning turli xil organlari tomonidan ular faoliyatlariga noo’rin (noqonuniy) aralashuvi, tadbirkorlikni tashkil etishdagi ba’zi bir ob’ektiv va sub’ektiv omillarni kiritish mumkin.

Keyingi yillar davomida mamlakatimizda korxonalar zimmasidagi “soliq yuki”ni kamaytirish borasida bir qator amaliy chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, birgina foyda solig’i stavkasi oxirgi yillar ichida 31 foizdan 8 foizga tushirildi. Jismoniy shaxslar daromad solig’ining eng yuqori stavkasi ham 40 foizdan 22 foizga pasaytirildi. Shuningdek, soliqqa tortishni soddalashtirish maqsadida kichik va xususiy biznes korxonalariga yagona soliq to’lovi to’lash bo’yicha imkoniyatlar yaratildi. Lekin ushbu erishilgan natijani yakuniy deb hisoblamasdan soliq yukini kamaytirish borasidagi izlanishlarni davom ettirish

maqsadga muvofiqdir. Bu o'rinda, soliq to'lovchi sub'ektlar sonini saqlab qolish yoki ularning safini kengaytirish, o'z navbatida, ularning zimmasiga to'g'ri kelayotgan soliq yukini kamaytirish imkonini beradi. Soliq yukining mohiyatini ikki xil darajada ifodalash bilan chuqurroq o'rganiladi. Soliq yukining birinchi darajasi soliqlar summasi bilan ifodalanadi.

“Soliq yuki” haqida gapirilsa, aynan mana shu ko'rsatkich ko'z oldimizda gavdalanadi. Soliq yukining ikkinchi darajasi egri soliq yukidir. Bu bevosita soliqni hisoblash va to'lash xarajatlari bilan bog'langan. Bu darajadagi soliq yuki ham katta ahamiyat kasb etib, hisob-kitob qilishga molikdir. Ko'pchilik hollarda ushbu xarajatlarni baholashda ularni faqat davlat sektorida mavjud, degan noto'g'ri xulosaga kelinadi. Mazkur holatning noto'g'riligini biz ikki sababga ko'ra ifodalaymiz.

Birinchidan, soliqlarni hisoblash va to'lash bilan bog'liq xarajatlar mehnat, vaqt va mablag' sarflarini talab etib, bu sarflar faqat davlat soliq idorasiga tegishli bo'lmay, balki soliq to'lovchilarga ham tegishlidir.

Ikkinchidan, bu xarajatlar qaysi tarmoqqa tegishli ekanligidan qat'iy nazar, bu yuk xususiy sektorga borib taqaladi. Egri soliq yukining pasayishi soliqlar sonining kamaytirilishida va ularni hisoblash hamda to'lash tartiblarining soddalashtirilishida amalga oshishi mumkin.

Korxona zimmasiga tushadigan soliq yuki to'g'risidagi munozaralar uni ifodalovchi ko'rsatkichni hisoblab chiqish usulini tanlamaguncha davom etishi mumkin. Ma'lum bir korxonaga “soliq yuki”ni hisoblashning mavjud mexanizmi quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$SY=(SS/TM)*100,$$

bu yerda

SY- soliq yuki;

SS-hisoblangan (to'langan) soliqlar summasi;

TM- soliqlarni hisoblash uchun to'lov manbai.

Hisoblanishi lozim bo'lgan soliq yuki tarkibiga birinchi navbatda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni kiritishimiz mumkin. Ba'zida "soliq yuki"ni hisoblashda qo'shilgan qiymat solig'i, aksizlar, jismoniy shaxslar daromad solig'i, budjetdan tashqari jamg'armalarga ajratmalarni kiritmaslikni tavsiya etishadi. Bunga asos qilib esa, bu soliq turlari korxonaga neytral ta'sir o'tkazishini ko'rsatishadi. Bizningcha, korxonaga ta'sir etmaydigan soliqlarning o'zi mavjud emas, chunki har qanday soliq korxona hisob raqamidan olinadi va korxonaning iqtisodiy faoliyatiga ma'lum miqdorda ta'sir o'tkazadi.

Shuni hisobga olgan holda, biz tomonimizdan soliq yukini ma'lum ko'rsatkichlarda hisoblanishini lozim deb hisoblaymiz. Bu soliq yuki tarkibiga korxona faoliyatiga bilvosita ta'sir o'tkazuvchi soliqlar bilan birga, korxona tomonidan to'lanadigan soliqlarni hisoblash va to'lashga ketgan xarajatlarni ham kiritishni maqsadga muvofiq deb bilamiz. Shu munosabat bilan biz soliq yukini hisoblash mexanizmiga yangi shartlarni kiritishni taklif etamiz.

$$TB = ((SS/TM) * 100) + DT,$$

bu yerda:

TB – umumlashma soliq yuki;

DT – egri soliq yuki.

Biz tomonimizdan tavsiya etilayotgan soliq yukini hisoblashning bu turi soliqlarning korxona moliyaviy xo'jalik faoliyatiga ta'sirini o'rganishda alohida ahamiyat kasb etishi mumkin. Chunki, bu sohadagi tadqiqotlar ko'p hollarda bevosita soliq yukiga qaratilganligi bois, ularda bilvosita soliq yukiga bo'lgan yondashuv alohida element sifatida aks etmagan.

Mamlakatimizda soliq yukini pasaytirish muammosini faqatgina soliq stavkalarini pasaytirish yoki ular bo'yicha ayrim imtiyozlarni joriy etish bilangina hal etib bo'lmaydi. Chunki, soliqlar nafaqat iqtisodiyotni tartibga solish, balki davlat budjeti xarajatlarini qoplashdek ulkan vazifani amalda ijro etadi. Shuning uchun soliqlar stavkasini pasaytirish borasida gap ketganda, u

avvalo, davlat budjeti daromadlarini shakllantirilishiga salbiy ta'sir o'tkazmasligi lozim. Keyingi yillar davomida soliqlarning rag'batlantiruvchilik funksiyasiga ko'proq urg'u berilayotganligi soliq stavkalarining pasaytirilishida ifodalandi. Ilmiy adabiyotlarda soliq imtiyozlari soliq yukini kamaytirishda o'ziga xos o'ringa egaligini ko'p uchratganmiz. Lekin soliq imtiyozlari har doim ham soliq to'lovchilar zimmasidagi soliq og'irligini pasaytirishga olib kelmasligi mumkin. Ayniqsa qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha berilgan imtiyozlar korxonalar zimmasiga qo'shimcha yuk sifatida tushmoqda. Qo'shilgan kiymat solig'i bo'yicha imtiyoz berilayotganda imtiyoz maqsadli berilishi kerak. Agar aholini ijtimoiy himoya qilinishi uchun soliqdan imtiyoz berilmoqchi bo'lganda, bevosita aholi tomonidan to'lanadigan xizmatlar uchun berilishi kerak, ya'ni imtiyoz oxirgi sotuv uchun berilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Fikrimizcha, soliq tizimida imtiyozlarning bir maromda va izchil ishlashi uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur:

- asta-sekinlik bilan soliq yukini soliq to'lovchilarning turli qatlamlariga etkazish;
- asoslanmagan va etarli tarzda asosga ega bo'lmagan individual va tarmoq xarakteridagi imtiyozlarni qisqartirish;
- real ishlab chiqaruvchilar zimmasidagi soliq yukini asta-sekinlik bilan pasaytirish;
- soliqqa tortish mexanizmini yanada soddalashtirish, uni har bir soliq to'lovchi uchun tushunarli qilish;
- soliq imtiyozlarini takomillashtirish va ular sonini oshib ketishiga yo'l qo'ymaslik;
- soliq idorasi bilan soliq to'lovchilar o'rtasidagi o'zaro uyg'unlikni yanada mustahkamlash.

Fikrimizcha, keltirib o'tilgan bu tadbirlar nafaqat soliq yukini pasaytirish orqali budjetning daromad qismidagi yo'qotishlar o'rnini qoplaydi, balki ishlab

chiqarishning o'sishi evaziga soliq tushumlarining yanada ko'proq tushishiga olib keladi.

3.2. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida byudjet daromadlarining shakllanishiga soliq imtiyozlarining ta'siri.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida soliqlarning tartibga soluvchilik vazifasining amalga oshirilishi ayniqsa muhim hisoblanadi. Davlat soliqlar yordamida tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotishning iqtisodiy shart-sharoitini tartibga soladi va bu bilan korxonalarning iqtisodiy faoliyatini amalga oshirish uchun muayyan soliq muhitini yaratadi. Bu muhitni sog'lom ravishda yaratilishida boshqa omillar qatori, soliqlarning rag'batlantiruvchi jihatlari, ayniqsa, soliq imtiyozlari va ulardan samarali foydalanish mexanizmini ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi. Berilayotgan soliq imtiyozlari nafaqat korxonaning budjet oldidagi majburiyatlarini kamaytirish uchun xizmat qiladi, balki uning aylanma mablag'larining ham ko'payishiga olib keladi. Bu mablag' evaziga korxona qo'shimcha dividendlar summasiga ega bo'ladi. Ya'ni imtiyozlar hisobiga ishlab chiqarishga investitsiyalar quyilishini rag'batlantirish uchun zamin tayyorlanmoqda. Shuningdek, olingan dividendlar ishlab chiqarishni kengaytirishga ham yo'naltirilmoqda:

- mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish;
- yangi ish joylarini barpo etish;
- ishchi va xizmatchilar ish haqlarini oshirish;

Shu bilan birga, imtiyozlarning amal qilishida ba'zi-bir kamchiliklar ham mavjudki, bu bevosita korxona faoliyatini imtiyozli davr tugagandan so'ng, faoliyatini to'xtatishi bilan bog'liq. Soliq qonunchiligiga muvofiq, agar korxona ushbu imtiyozli davrdan keyin bir yil o'tganiga qadar tugatilgan taqdirda, soliq summasi ularning butun faoliyat davri uchun to'liq miqdorda undirib olinadi.

Ammo bu narsa har doim ham kafolatlanmagan. Sababi, korxona tugatilayotganda korxonaning mavjud mablag'lari va mol-mulki ushbu undirilishi lozim bo'lgan summadan kam miqdorni tashkil etishi mumkin. Undan tashqari, soliqni undirish jarayoni juda ko'p o'voragarchiliklarga sabab bo'ladi va pirovard natijada inflyatsiya darajasini hisobga olsak, undirib olinayotgan soliq miqdori imtiyoz davrida to'lanmagan soliq miqdoridan kam bo'lishi ehtimoldan holi emas. Shu sababli, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, eksport uchun tayyor mahsulot ishlab chiqarayotgan korxonalarga eksport ulushidan qat'iy nazar 5 yil muddatga foyda va mol-mulk solig'i stavkalarining 50 foizi miqdorida soliq imtiyozi o'rnatishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Mamlakatda yaratib berilayotgan bunday shart-sharoitlar natijasi korxonalarning ishlab chiqarish, investitsiya va innovatsiya faoliyatlarini jadallashtirishda, shuningdek, ular eksport salohiyatini yuksaltirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Garchi shu paytga qadar, Respublika Hukumati tomonidan bunday korxonalarini har taraflama qo'llab-quvvatlanayotgan bo'lsada, xususiy tarmoqning bugungi miqyoslari va ahvoli bozor munosabatlarini shakllantirish talablariga to'liq javob bera olmayapti.

Yana bir masala, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga ko'ra korxonalar uchun pasaytirilgan foyda solig'i stavkalarini belgilash huquqi berilgan. Eksportchi korxonalar uchun o'zi ishlab chiqargan tovarlar (xizmatlar, ishlar) erkin almashtiriladigan valyutaga eksport qilishning umumiy realizatsiya hajmidagi ulushiga qarab daromadlarni soliqqa tortishning regressiv shkalasi quyidagicha:

- 15 foizdan 30 foizgasagacha bo'lsa, stavka 30 foizga kamaytiriladi;
- 30 foizdan ko'p bo'lsa stavka ikki barobarga kamaytiriladi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, mamlakatimizda eksportga mo'ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarishni rag'batlantirish hamda qo'llab-quvvatlash yuzasidan zarur chora-tadbirlar davlat tomonidan amalga oshirilmoqda. Lekin, keyingi o'n yil davomida jahon bozorida raqobatchilik juda keskin tus oldi. Shu

tufayli, hatto rivojlangan davlatlar ham o'z eksportyorlariga turli xil yordam ko'rsatishga intilmoqdalar. Bu yordam birinchi navbatda, moliyaviy qo'llab-quvvatlash bilan ifodalanadi. Hozirgi vaqtda xorijning rivojlangan davlatlarida eksport operatsiyalarini bajarish uchun maxsus kredit ajratuvchi tashkilotlar ko'paygan. Ular bu operatsiyalar bilan bog'liq xavf-xatardan qo'shimcha sug'urtalashni ham o'z zimmasiga oladi. Chunki, eksport operatsiyalarini odatiy tijorat sug'urtasi bilan kafolatlash mushkul vazifadir. Korxonalarining jahon bozorlarida eksport salohiyatini oshirishda soliqlardan beriladigan imtiyozlarning ular moliyaviy imkoniyatlarini kuchaytirishdagi bevosita ta'sirini inkor etmagan holda, amaldagi imtiyozlarning o'zi bu turdagi korxonalar uchun etarli emasligi ko'zga tashlanib qolmoqda. Aytish lozimki, iqtisodiy o'sishning real manbai aynan ishlab chiqarish bilan bog'liq ekan, uni yuzaga chiqarish uchun xo'jalik sub'ektlari zimmasidagi soliq yukini kamaytirish muhim hisoblanadi.

Soliq yukini kamaytirish faqatgina soliq miqdorini kamaytirish bilan ifodalanmasdan, balki soliqni hisoblash tartibini ham isloh qilinishini ifodalaydi. Chunki, hozirda qo'llanilayotgan bu tartib korxonaning moliyaviy natijalarini baholashni oshirib ko'rsatishga olib keladi. Shuningdek, amaldagi foyda solig'ining stavkasini boshqa davlatlar bilan taqqoslaganda o'rtacha deb hisoblash mumkin. Lekin bu narsa soliq solinadigan ob'ekt nuqtai-nazaridan qaralganda, soliq daromadlarini ko'proq yig'ishtirib olishga imkon beradi. Soliq solish bazasiga korxona foydasi bilan bir qator xarajatlar ham kiritiladi. Jahon amaliyotida esa ular tannarx tarkibiga kiritiladi (uzoq muddatli kreditlar bo'yicha foizlar, to'lov muddati uzaytirilgan va to'lov muddati o'tgan ssudalar bo'yicha foizlar, valyuta kurslari bo'yicha tafovutlardagi yo'qotishlar, qimmatbaho qog'ozlar realizatsiya qilinganda yuzaga keladigan zararlar va boshqa xarajatlar).

Bozor munosabatlari sharoitida resurslar va mol-mulk solig'ining korxonalar foyaitiga ta'siri sezilarli bo'lishi mumkin. Chunki, zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyasining qiymati arzon emas va shuning uchun katta soliq

manbaiga ega bo'lgan holda, bu soliq miqdorining ozgina o'sishi korxonaning hamma foydasini ishg'ol etishi mumkin. Mol-mulk solig'ining yuqori darajada o'rnatilishi birinchi navbatda, ishlab chiqarish vositalariga, sig'imi katta bo'lgan xo'jalik yuritish va ilmiy ishlab chiqarish manfaatlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mol-mulk solig'i stavkasining korxonalar to'lov qobiliyatiga qarab darajalashuvi korxonalar moliyaviy ahvolini mustahkamlash uchun xizmat qiladi.

Fikrimizcha, korxonalarning investitsion faolligini va mamlakatga yangi texnologiyalar kiritishni rag'batlantirish borasidagi imtiyozlarni maqsadli va adresli bo'lishini taqozo etadigan chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq. Amaldagi soliq qonunchiligida investitsion faollikni qo'llab-quvvatlaydigan soliq imtiyozlari moliya yili davomida bir martagina qo'llanilishi talab etiladi. Bu albatta, tadbirkorlik faolligini susaytirish bilan birga, uning jozibadorligiga ham putur etkazadi. Bu borada rivojlangan mamlakatlar tajribasi ayniqsa qo'l kelishi mumkin. Xususan, Buyuk Britaniyada 1998 yil 1 iyulda kiritilgan yangi qoidalarga muvofiq, agar korxona mashina va uskunalar sotib olishga o'z mablag'larini yo'naltirgan bo'lsa, soliq imtiyozidan foydalanish huquqini qo'lga kiritadi. Masalan, firma 100 ming funt sterlingga mashina yoki uskuna sotib oldi, birinchi yili bu summaning 50 foizi miqdorida imtiyozga ega bo'ladi, keyingi yillari 25 foizi va quyidagi tartibda amalga oshadi:

$$1 \text{ yili} - 100\,000 * 50\% = 50\,000$$

$$2 \text{ yili} - (100\,000 - 50\,000) = 50\,000 * 25\% = 12\,500$$

$$3 \text{ yili} - (50\,000 - 12\,500) = 37\,500 * 25\% = 9\,375 \text{ va hokazo.}$$

Bu misoldan ko'rinib turibdiki, firma soliq imtiyozi olishini bilgan holda mashina yoki uskuna sotib olishga mablag'larini yo'naltirgan. Bu imtiyozga o'xshash imtiyozni bizning soliq amaliyotimizda ham uchratish mumkin. Ya'ni korxona o'z mablag'larini investitsiya qilishga qaratsa, soliqqa tortiladigan daromadning 30 foiz miqdorida imtiyozga ega bo'ladi. Bu imtiyoz moliya yili davomida bir marta qo'llanilishi mumkin, lekin amaliyotda ushbu moliya yilida

imtiyozni olgan xo'jalik yurituvchi sub'ekt keyingi yili faoliyatini tugatishi yoki olingan uskunani sotib yuborishi mumkin. Buyuk Britaniya qoidalari buyicha esa bu imtiyoz bir necha yil davomida berilishini yuqorida ko'rib o'tdik. Bu amaliyotdan kelib chiqqan holda, bizning mamlakatimiz soliq qonunchiligiga ayrim o'zgartirishlar kiritilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Yuqorida bayon etib o'tilgan fikr-mulohazalarimiz nafaqat soliq tizimidagi ayrim muammolarni hal etishda, balki shu bilan birga, bugungi kunda iqtisodiyotimiz duch kelayotgan ayrim to'siqlarni bartaraf etishda ham xizmat qiladi, degan fikrni bildirgan holda, bular natijasida kelib chiqadigan chora-tadbirlar tizimini keltirib o'tishni lozim topdik:

- korxonalarga berilayotgan imtiyozlar mexanizmini ba'zi bir shartlar bilan boyitish. Xususan, eksportyor korxonalar uchun jahon standartlariga to'g'ri keladigan tayyor mahsulot ishlab chiqarish fakti tasdiqlangandagina soliq imtiyozini taqdim etish;
- soliqqa tortiladigan bazani isloh etish orqali ba'zi bir xarajatlarni uning tarkibidan chiqarish, korxonalarning moliyaviy mustahkamligini ta'minlaydi;
- korxonaning o'z ishlab chiqarishiga investitsiya qilish, xususan, sotib olinayotgan zamonaviy texnologiya uchun xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga alohida rag'batlantirish chora-tadbirlarini qo'llash.

XULOSA

Soliq imtiyozlarining iqtisodiy mohiyati, ahamiyati, ularni qo'llash tamoyillari, soliq imtiyozlarining korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirishdagi ahamiyati doirasida olib borilgan tahlillar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Soliqlarning rag'batlantirish funktsiyasidan samarali foydalanish mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlari bo'lib, soliq siyosatini yanada erkinlashtirishning asosiy bo'g'inlaridan biri hisoblanadi;

2. Tahlillarning ko'rsatishicha, soliqlardan berilgan imtiyozlar qiymati o'sgani sayin, ulardan foydalanuvchilar soni ham shunga muvofiq tarzda oshib bormoqda yoki aksincha. Shuningdek, imtiyozni berilishidagi ayrim nomukammalliklar ularning samarali ishlashiga salbiy ta'sir o'tkazmoqda;

3. Qilingan tahlillardan kelib chiqadigan bo'lsak, ijtimoiy xarakterdagi imtiyozlar mamlakatimizda salmoqli miqdorga ega. Shuni hisobga oladigan bo'lsak, bu turdagi imtiyozlardan voz kechish budjet daromadlarini o'sishiga olib kelmaydi. Iqtisodiyotni rivojlantirish xarakteridagi imtiyozlarni berish natijasida, istiqbolda budjet daromadlarining oshishi mumkinligini hisobga olish maqsadga muvofiq;

4. Mamlakatimizda soliq imtiyozlari sonining ko'pligi iqtisodiyotning o'tish davriga xos bo'lgan umumiy holat sifatida qaralishi bilan bir qatorda, bozor munosabatlarini yanada erkinlashtirilishi sharoitida individual va kam ahamiyatga ega bo'lgan imtiyozlar sonini tobora kamaytirib borish talab etiladi;

5. Soliq imtiyozlarining berilishi davlat budjeti daromadlarining ma'lum qismidan voz kechishi orqali amalga oshmoqda. Shu bilan birga, bu imtiyozlarning tizimda samarali ishlashini ta'minlash uchun parallel ravishda qilinishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar ham mavjudki, ular soliq, pul-kredit va davlatning iqtisodiy boshqaruv siyosati bilan muvofiqlashtirilishi zarur;

6. Imtiyozlarning rag'batlantiruvchanlik ta'siri birinchi navbatda, mamlakatda ilmiy-texnik taraqqiyotni jadallashtirishga va uni ishlab chiqarishga

joriy etishga, jahon bozorida raqobatbardosh hamda keng xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarishni rivojlantirishga yo'naltirilishi lozim.

Soliqlarning rag'batlantirish funksiyasini kuchaytirishga qaratilgan quyidagi ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Soliq imtiyozlari va ularning bozor munosabatlarini erkinlashtirish sharoitida to'liq amal qilishi uchun bozor iqtisodiyoti mexanizmi asoslari to'g'ri yo'lga qo'yilgan bo'lishi lozim. Birinchi navbatda korxonalarning iqtisodiy samara olish imkoniyatlarini kuchaytirish lozim. Aynan mana shu maqsadda ularga imtiyozlar bilan ta'sir ko'rsatibgina qolmay, balki soliq yukini pasaytirish, soliq bazasini tartibga solish kabi tadbirlarni parallel yo'nalishda olib borish lozim. Soliq imtiyozlarining berilishi tartibi birinchi navbatda mamlakatdagi mavjud vaziyatdan kelib chiqqan holda amalga oshirilishi kerak. Ya'ni, yangi texnologiyani joriy etish, rekonstruksiyalash, yangi qurilish, ishlab chiqarishni kengaytirish va texnik qayta qurollanishga qaratilgan imtiyozlar ustivor ahamiyat kasb etishi darkor.

2. Amaldagi soliq tizimida, xususan foyda va qo'shilgan qiymat soliqlarida keng tartibda soliq imtiyozlari ishlab chiqilgan. Lekin, ana shu imtiyozlardan foydalanish darajasining pastligi uning samarasiz ishlashiga olib kelmoqda. Bunday holatning oldini olishga korxonalar va ilmiy markazlar (shuningdek, oliy o'quv yurtlari) o'rtasidagi ishlab chiqarishga yangi texnologiya turlarini yaratuvchanlik borasida ikki tomonlama aloqalarning o'rnatilishi va bunday aloqalarni mustahkamlanishini ta'minlaydigan soliq imtiyozlarining berilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Shu bilan birga, imtiyozni berishda ilmiy ishlanmalarni ishlab chiqarishga tadbiriq etilishi bosh mezon sifatida qaralishi zarur.

3. Foyda solig'idan beriladigan imtiyozlar tizimida budjet tashkilotlariga beriladigan imtiyozlarning salmog'i sezilarli nisbat kasb etadi. Misol uchun, foyda solig'i to'lashdan budjet muassasalari tarkibiga kiradigan jazoni o'tash muassasalari ozod qilingan. Bu tashkilotlarning xarajatlarini O'zbekiston Respublikasining budjeti daromadlar va xarajatlar tasniflanishining tegishli

moddalari asosida davlat budjetidan moliyalashtirilishini hisobga oladigan bo'lsak, bu muassasalarni foyda solig'idan ozod etilishi fikrimizcha o'z ma'nosiga ega emas.

4. Ishimizda mamlakatimizda foyda solig'i stavkalarining yildan yilga pasayishi tendentsiyasini korxonalarga berilayotgan ma'lum imtiyoz sifatida qaralgan. Lekin, bu imtiyozning berilishi barobarida kutilgan natijaga erishilmayapti. Xususan budjetga tushadigan soliq tushumining kamayib borayotganligi kuzatilmoqda. Stavkaning pasayishi natijasida korxona ixtiyorida qoladigan summani investitsiya jarayoniga jalb etish holatlari sust darajada amalga oshmoqda va kutilgan natijani bermayapti deyish mumkin. Buning eng asosiy sabablaridan biri ko'pgina korxonalarda foyda normasining kamligi va shunga muvofiq ravishda foyda miqdorining kamligidir. Bundan tashqari, hozirgi davrda budjet daromadlarini kamaytirish hisobiga korxonalar ixtiyorida qoladigan daromadlar to'liq investitsiyalarga sarflanadi deyish biroz noto'g'ri bo'lar edi. Chunki iqtisodiy qiyinchiliklar sharoitida daromadlarning bir qismi iste'molni qondirishga, xususan mehnatga haq to'lash xarajatlarini oshirish, korxonaning qarzlarini to'lash va boshqa tadbirlarga sarflanishi ehtimoldan xoli emas. Shuningdek, soliq imtiyozlarining berilishi budjet ijrosining istiqbollari bilan belgilanishi lozim.

5. Soliq imtiyozlarining amalda to'liq ishlashi va korxonalarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga ta'siri kuchli bo'lishi uchun ma'lum maqsadni ko'zlab berilgan imtiyozning korxona to'laydigan barcha soliq to'lovlari (yoki asosiy soliq to'lovlari)dan berilishiga erishish lozim. Shuningdek, foyda solig'iga qayta qo'shiluvchi xarajatlar tarkibidagi o'zgarishlarning ham amalga oshirilishi korxonalarning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Xususan, foyda solig'i bazasiga amortizatsiya summasining tezlashtirilgan qismini qo'shmaslik va tezlashtirilgan amortizatsiyani qo'llashda inflyatsiya indeksini hisobga olish va uni korxonalar amaliyotiga joriy etilishi lozim deb hisoblaymiz. Bu taklifimizning amaliyotga joriy etilishi:

- korxonalarning asosiy vositalarini modernizatsiyalashni rag'batlantiradi;

- ularning moliyaviy barqarorligini kuchaytirib, foyda olish imkoniyatlarini kengaytiradi;

- istiqbolda investitsiyalar uchun mablag'larning yig'ilishini ta'minlaydi.

6. Korxonalar zimmasidagi soliq yukini yanada kamaytirishda qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha berilgan imtiyozlarning ta'siri katta deyish mumkin. Shuningdek, ayrim soliq to'lovchi guruhlarining bu soliqdan ozod qilinishi quyidagi salbiy natijalarga olib kelishi mumkin ekanligini e'tirof etish lozim:

- soliq to'lovchi xom-ashyo, materiallar va yarim fabrikatlarni sotib olayotganda (20 foizli) QQS bilan birgalikda sotib oladi. To'lovchining bu soliq turidan ozod etilganligi natijasida mahsulot qiymati tarkibidagi qqs uning tannarxiga olib boriladi va korxonaning ishlab chiqarish xarajatlari ko'payadi hamda foyda normasi kamayadi;

- QQSdan ozod bo'lgan soliq to'lovchi o'z mahsulotini QQS to'lovchi bo'lgan korxonaga sotadi va natijada korxona QQSni hisobga olish huquqidan mahrum bo'ladi hamda soliqni hisoblash zanjiri uziladi;

- QQS bo'yicha berilgan imtiyozlardan budjet zarar ko'rmaydi, lekin imtiyoz qiymati boshqa korxonalar zimmasidagi soliq yukini oshishiga olib keladi.

Bu soliq turi buyicha soliqqa tortishning takomillashuvi butun soliq tizimining samaraliroq ishlashiga asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bizningcha, bu ikki yo'nalishda amalga oshishi lozim:

1. QQS stavkasini asta-sekinlik bilan pasaytirish orqali;

2. QQS bazasi tarkibini tartibga solish orqali, ya'ni uning bazasidan aktsiz va bojxona bojini chiqarib tashlash bilan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari.

Normativ-huquqiy hujjatlar:

1.1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: - T.: "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012 y. -40 B.

1.2. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi: Rasmiy nashr -O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi - T.: "Adolat", 2014 y. -590 B.

1.3. O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi Qonuni. 1997 yil, 29 avgust.

1.4. O'zbekiston Respublikasining "Soliq maslahati to'g'risida"gi qonuni. 2006 yil 21 sentyabr. //Soliqlar va bojxona xabarlari gazetasi. 2006 yil 21 sentyabr.

1.5. O'zbekiston Respublikasining "Byudjet tizimi to'g'risida"gi qonuni. 2000 yil 14 dekabr. //Soliqlar va bojxona xabarlari gazetasi. 2001 yil 2-son.

1.6. O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 5 dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zR-379-sonli Qonuni.

1.7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2012 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 1675-sonli Qarori (2011 yil 30 dekabr).

1.8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi 1887-sonli Qarori (2012 yil 25 dekabr).

1.9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining 2014 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi 2099-sonli Qarori (2013 yil 25 dekabr).

1.10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining 2015 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-2270-sonli Qarori (2014 yil 4 dekabr).

1.11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 8 yanvardagi “Respublika soliq organlari tizimini yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1257 sonli Qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari va ma’ruzalari

1.12. Karimov I. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. -Toshkent.: “O‘zbekiston” 1995 y.

1.13. Karimov I. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik. –T.: “O‘zbekiston”. 2005.

1.14. Karimov I. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokrat-lashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. -Toshkent.: “O‘zbekiston”, 2005.

1.15. Karimov I. Jahon moliyaviy - iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. -T.: “O‘zbekiston”. 2009.

1.16. Karimov I. “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi”. //Toshkent oqshomi gazetasi. 2009 yil 16 fevral. №32.

1.17. Karimov I.A. Mamlakatimizni yanada obod etish va modernizatsiya qilishni qat’iyat bilan davom ettirish yo‘lida. –T.: “O‘zbekiston”, 2013. 384 bet

1.18.Karimov I.A. Amalga oshirilayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish – yorug' kelajagimizning asosiy omilidir. –T.: “O'zbekiston”, 2013. 80 bet

1.19.Karimov I.A. O'zbek xalqiga tinchlik va omonlik kerak. –T.: “O'zbekiston”, 2013. 36 bet

1.20.Каримов И.А. На пути решительного продолжения дальнейшего процветания и модернизации страны. –Т.: “Узбекистан”, 2013. 208 стр.

1.21.Karimov I. “2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi” Prezident Islom Karimovning 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi gazetasi. 2012 yil 20 yanvar.

1.22.Karimov I. “Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish” O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan vazirlar mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. //Xalq so'zi. 2013 yil 21 yanvar.

1.23.Karimov I. 2014-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2013-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan vazirlar mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. //Xalq so'zi. 2014 yil 18 yanvar.

1.24.Karimov I. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir”. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2014-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish

yakunlari hamda 2015-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan vazirlar mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. //Halq so'zi. 2015 yil 19 yanvar.

II. Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar.

Darslik va o'quv adabiyotlari:

2.1. Vahobov A., Jo'raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. //Darslik. –T.: “Sharq”. 2009. -526 b.

2.2. Almardonov M., Kuzieva N. Soliqlar va soliqqa tortish. -T.: “Iqtisod-moliya”. 2007.

2.3. Sanaqulova B. Kichik biznes va tadbirkorlikni soliqqa tortish. –T.: “NOSHIR”, 2012. 236 bet.

2.4. Xabibullaev I., Djaylavov A. Soliq tizimida axborot texnologiyalari. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2009. 220 bet.

2.5. Mirzamaxmudov M. Davlat maqsadli jamg'armalaridan foydalanish samaradorligini oshirishda iqtisodiy tejamkorlik. –T.: “Fan va texnologiya”, 2013. 112 bet.

2.6. Urazov K., Xudayberdiev N. Soliqlar va to'lovlar auditining xususiyatlari. Samarqand, 2012. 300 bet.

2.7. Adizov A. Jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlar tizimini takomillashtirishning nazariy va amaliy masalalari. Risola. –T.: “Akademnashr”, 2012. 128 bet.

2.8. Soliev A. Korxona iqtisodiyoti. –T.: “Fan va texnologiya”, 2013. 368 bet.

2.9. Usmanova M. Jismoniy shaxslarning daromadlarini deklaratsiya usulida soliqqa tortish muammolari. Monografiya. –T.: “Tamaddun”, 2013. 144 bet.

2.10. Vaxabov A., Toshmatov Sh., Haydarov N. Moliya savodxonligi

asoslari. –T.: “Bakteriya-press”, 2013. 288 bet.

2.11. Almardonov M. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish. –T.: “Cho’lpon nomidagi NMIU”, 2013. 296 bet.

2.12. Meyliev O. Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda soliqlarning o’rni. Monografiya. –T.: “Tamaddun”, 2013. 136 bet.

2.13. Amanov A. Qishloq xo’jaligi korxonalarini soliqqa tortishning metodologik asoslari. Monografiya. –T.: “Tamaddun”, 2015. 114 bet.

2.14. Yuldashev I. Soliq va soliqqa tortish. –T.: Fan va texnologiyalar. 2007.

2.15. Toshmurodova B. Soliq nazorati. //O’quv qo’llanma. – T.: Iqtisod-moliya. 2007.

2.16. Fayziev Sh. Soliq va to’lovlar auditining xususiyatlari. –T.: “Iqtisod-moliya”. 2006.

2.17. Vahobov A. Byudjet-soliq siyosati yaxlitligi. //O’quv qo’llanma. –T.: Iqtisod-moliya. 2005.

2.18. Jo’raev A., Safarov G’. Soliq nazariyasi. //O’quv qo’llanma. –T.: “Iqtisod-moliya”. 2005.

2.19. Abduraxmonov O., Kushakaev B. Soliq islohotlari: izchillik va tadrijiylik. –T.: “Akademiya”. 2005.

2.20. Zavalishina I. Soliqlar: nazariya va amaliyot. //O’quv qo’llanma. –T.: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi”. 2005.

2.21. Jo’raev A. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo’llari. //monografiya. –T.: “Fan”. 2004.

2.22. Toshmatov Sh., Komilov M. Qo’shilgan qiymat solig’i. –T.: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi”. 2004.

2.23. Yahyoev Q. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. //O’quv qo’llanma. –T.: 2003.

2.24. Mamanazarov A. Soliq siyosati. –T.: “Moliya”. 2003. 19-bet.

2.25. Toshmurodova B. Soliqlar vositasida iqtisodiyotni boshqarish mexanizmi. –T.: “Yangi asr avlodi”. 2002.

- 2.26. Торговля в Узбекистане. Статистический сборник. –Т.: Государственный комитет Республики Узбекистан по статистике. 2013. 186 стр.
- 2.27. Финансы Узбекистана. Статистический сборник. –Т.: Государственный комитет Республики Узбекистан по статистике. 2013. 136 стр.
- 2.28. Нигмаджанов У. Экономическая теория. Учебник. –Т.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2013. 328 стр.
- 2.29. Юринова Л. Налоги и налогообложение. -СПб.: “ПИТЕР”. 2007.
- 2.30. Бодрова Т. Налоговый учет и формирование учетной политики для целей налогообложения. -М.: “Дашков и К”. 2006
- 2.31. Малихин В. Экономико-математическое моделирование налогообложения. //Учебное пособие. -М.: “Висшая школа”. 2006.
- 2.32. Романова А. Организация и методы налоговых проверок. //Учебное пособие. -М.: “Вузовский учебник”. 2006.
- 2.33. Лукаш Ю. Оптимизация налогов. Методы и схемы. -М.: “Гросс Медиа”. 2005.
- 2.34. Абдурахманов О. Налоговые системы стран с переходной экономики. –М.: Палеотип. 2005.
- 2.35. Миляков. Н. Налоги налогообложение. -М.: Инфра-М. 2005. стр. 69.
- 2.36. Макарева В. Оптимизация налогообложения. –М.: ООО “Горячая линия бухгалтера”. 2005. стр. 56.
- 2.37. Сердюков А. Налоги и налогообложение: Учебник для вузов. - СПб.: “ПИТЕР”. 2005. стр. 51
- 2.38. Бард В., Павлова Л. Налоги в условиях экономической интеграции. -М.: “Кнорус”. 2004.
- 2.39. Пансков В., Князев В. Налоги и налогообложения. -М.: МЦФЕР. 2003. 57 стр.
- 2.40. Романовский М. Налоги и налогообложение.. -СПб.: “ПИТЕР”.

2003.

2.41.Пансков В., Князев В. Налоги и налогообложение. //Учебник. – М.: МЦФЕР. 2003.

2.42.Перов А., Толкушкин А. Налоги и налогообложение. //Учебное пособие. -М.: “Юрайт-Издат”. 2003.

2.43.Черник Д., Павлова Л., Дадашев А. Налоги и налогообложение. //Учебник. -М.: ИНФРА-М. 2003.

2.44.Юткина Т. Налоги и налогообложение. -М.: “ЮНИТИ”. 2002.

2.45.Поляк Г. Налоги и налогообложение. -М.: “ЮНИТИ”. 2002.

2.46.Финансово-кредитный энциклопедический словарь. //Под ред. А.Грязновой. -М.: “Финансы и статистика”. 2002.

2.47.Александров И. Налоговые системы России и зарубежных стран. - М.: “Бератов-Пресс”. 2002.

2.48.Миляков Н. Налоги и налогообложение: Практикум. -М.: “ИНФРА-М”. 2001.

2.49.James E.Smith. West Federal taxation: Taxation of business entities. 2005 e.

2.50.Griffin & Ebert. Business. 7th edition. Prentice-Hall. 2004.

Ilmiy jurnallardagi maqolalar va tezislar:

2.51.Jo’raev A. Daromad, byudjet va soliqlar.//Soliq to’lovchining jurnali. — Toshkent, 2004. №4, - B. 27.

2.52.Niyozmetov I. Soliq yukini mikrodarajada baholashning ob’ektiv zarurati. //Bozor pul va kredit. - Toshkent, 2007. - №5. - B. 51-53.

2.53.“Soliq tizimini takomillashtirish yo’nalishlari” //Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. –T.: “Iqtisod-moliya”. 2011.

2.54.“Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida soliqlarning rag’batlantiruvchanlik rolini yanada oshirish yo‘llari” // Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. –T.: “RISO”. 2014 yil 22 fevral.

III. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar.

- 3.1. O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2010 yil. -T.:2010.-№12.
- 3.2. O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2011 yil. -T.:2011.-№9.
- 3.3. O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2012 yil. -T.:2012.-№6.
- 3.4. O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2013 yil. -T.:2013.-№4.
- 3.5. O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2014 yil. -T.:2014.-№1.
- 3.6. O'zbekiston statistik axborotnomasi. - Toshkent, 2012 - 2014.

IV. Internet saytlari.

- 4.1. <http://www.prezident.uz>-O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy sayti.
- 4.2. <http://www.gov.uz>-O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi rasmiy sayti.
- 4.3. <http://www.soliq.uz>-O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi rasmiy sayti.
- 4.4. <http://www.mf.uz>-O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti.
- 4.5. <http://www.nalog.ru>-Rossiya Federatsiyasi Federal soliq xizmati rasmiy sayti.
- 4.6. <http://www.stat.uz>-O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti.
- 4.7. <http://www.lex.uz>-O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi huquqiy axborot bilan ta'minlash markazi rasmiy sayti.